



Elbek BOTIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: elbekalisherovich91@gmail.com

O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b., t.f.f.d (PhD), N.Rahimov taqrizi asosida

TURKISTON ASSR BOJXONA FAOLIYATIDA KONTRABANDA: MUAMMOLAR VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

Аннотация

Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati o'rnatilgach, mavjud siyosiy ahvolni tarangligi, hukumatning moliyaviy jihatdan tang ahvoli, markazlashgan bojxona tizimida nazoratni o'z vaqtida tashkil qila olmaganligi, chegara postlarini qoniqsiz ahvoli, soqchi va bojxona xizmatchilarga maoshlari oylab davomida berilmasliklari davlatlar o'rtasida noqonuniy tovarlar aylanmasi – kontrabandani rivojiga turtki bo'ldi. Mazkur maqolada kontrabanda tushunchasiga izoh, noqonuniy tovarlar aylanmasi, unga qarshi kurash choralari, qonunchilik va jinoiy javobgarlik kabi dolzarb ma'lumotlar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, kontrabanda, boj tariflari, noqonuniy mahsulotlar aylanmasi, kurash choralari, qonunchilik, jinoiy javobgarlik.

КОНТРАБАНДА В ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР: ПРОБЛЕМЫ И МЕРЫ БОРЬБЫ С НЕЙ

Аннотация

После установления Советской власти в Туркестане напряженность сложившейся политической обстановки, финансовое положение правительства, неспособность вовремя организовать контроль в централизованной таможенной системе, неудовлетворительное состояние пограничных застав, неуплата пошлин зарплаты охранникам и таможенникам за месяцы стимулировали развитие оборота нелегальных товаров между странами – контрабанды. В данной статье дается объяснение понятия контрабанда, анализ современной информации, такой как оборот нелегальных товаров, меры борьбы с ним, законодательство и уголовная ответственность.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, контрабанда, таможенные тарифы, оборот нелегальной товаров, меры противодействия, законодательство, уголовная ответственность.

SMUGGLING IN CUSTOMS ACTIVITIES OF THE TURKESTAN ASSR: PROBLEMS AND MEASURES TO COMBAT IT

Annotation

After the establishment of Soviet power in Turkestan, the tension of the current political situation, the financial situation of the government, the inability to timely organize control in the centralized customs system, the unsatisfactory condition of border outposts, and non-payment of duties to the salaries of guards and customs officers over the months stimulated the development of the circulation of illegal goods between countries - smuggling. This article provides an explanation of the concept of smuggling, analysis of modern information, such as the trafficking of illegal goods, measures to combat it, legislation and criminal liability.

Key words: Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic, smuggling, customs tariffs, circulation of illegal products, countermeasures, legislation, criminal liability.

Kirish. Xalqaro savdoning keskin rivojlanishi hamda kontrabanda predmetlari ruyhatining kengayishi natijasida XIX-XX asr boshlarida ko'pgina davlatlar o'zlarining bojxona sohasidagi qonunchiliklarida kontrabanda uchun qa'tiy ma'muriy va jinoiy jazo choralarini mustahkamlab quyidilar. 1909 yil 26 fevralda "Dengiz urushi" to'g'risidagi Xalqaro deklaratsiyada birinchi marotaba "kontrabanda" so'zi ishlatildi. Ushbu deklaratsiyaga muvofiq urushayotgan tomonlar g'anim tomondan harbiy maqsadlarda foydalanish mumkin bo'lgan tovarlarni taqiqlab quyishi kiritildi va xarbiy kontrabandaga taaluqli ashyo va predmetlar ro'yhati keltirildi[1]. Oktabr inqilobdan keyingi dastlabki yillarda Turkiston ASSR hududida, butun sovet Ittifoqida kuzatilganidek, mamlakatda moliyaviy resurslar qisqarganligi, budjet taqchilligi, mablag'larning yetishmasligi, ishlab chiqarish kuchlarining yo'lga quyilmagani, ocharchilik va oziq-ovqatga bo'lgan talabning oshishi chegaradosh davlatlardan olib kiriladigan mahsulotlarga yuqori boj tariflari, chegaralarni uzunligi va qo'riqlash imkoniyati cheklangani kontrabandani kengayishiga xizmat qildi. Shuningdek, siyosiy jarayonlar davrida uzilib qolgan tashqi savdo aloqalarni tiklashga kam

harakat qilingani va qo'shni mamlakatlar bilan tashqi savdo masalalarida turli kelishmovchiliklar muqobil savdo yuritishni cheklab quyishiga va kontrabanda rivojiga sabab bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bojxona tizimida qonun hujjatlarni buzganlik, kontrabanda, uning turlari, unga qarshi kurash choralari, qonunchilik, kontrabandani ijtimoiy mohiyati masalalar siyosiy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan yoritib berish ishlari ilmiy doirada zamonaviy tadqiqotlarda[2] hamda tarixiylik jihatidan ochib berilgan ilmiy tadqiqotlar[3] oz miqdorni tashkil qilmoqda. Turkiston ASSR bojxona ishi tarixiga doir asosiy manbalar bojxona ishiga oid hujjatlar bo'lib, hozirgi kunda O'zbekiston Milliy arxivida R-330-fondida saqlanib kelmoqda. Fond yig'majildlari tarkibiy qismida[4] ish yuritish hujjatlari bilan birga kontrabanda va uning turlari, noqonuniy import-eksport tovarlar aylanmasi, bojxona xodimlarini kontrabandaga qarshi kurash choralari, bojxona qonunchiligi va Xalq sudlari hukmlari aks etgan ko'plab hujjatlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy izlanishlarda tadqiqot metodologiyasi juda muhim o'rni bor. Mavzu doirasida manbalar va adabiyotlarni qiyosiy tahlil usulida yoritish

ishning konseptual asosi bo'lib xizmat qiladi. Turkiston ASSR bojxona ishi faoliyatida kontrabanda masalalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'rganilayotgan davr iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini kliometrik tahlil qilish imkonini beradi. Iqtisodiy tahlil tarixni obyektiv va holis yondoshishga xizmat qiladi. Mavzuni yoritishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tizimli, qiyosiy va muammoviy-xronologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Kontrabandaga Chor Rossiyasi davrida davlat moliya manfaatlariga zid ish sifatida[5] qaralgan bo'lsa, sovet davrida unga birinchi marotaba izoh berildi. Hususan, 1917 yil 29 dekabrda (yangi kalendar bo'yicha 1918 yil 11 yanvar) RSFSR XKSning "Tovarlarni import va eksport qilishga ruxsat berish tartibi to'g'risida"gi dekretida "Savdo va sanoat xalq komissarligi tashqi savdo bo'limining ruxsatisiz tovarlarni olib kirish va eksport qilish, bojxonalardan noqonuniy o'tkazish" kontrabanda sifatida tavsiflangani, 1922-yil 1-sentabrda "Bojxona muhofazasi to'g'risida"gi dekretida "bojxona to'lovlarini to'lamaslik maqsadida olib kirilgan yoki olib chiqilgan, shuningdek tovarlar va boyliklarni bojxona nazoratidan yashirgan holda bojxona orqali olib kirish yoki olib chiqish" kontrabanda sifatida malakalangani, SSSR MIQning 1924 yil 12 dekabrda "Bojxona to'g'risida"gi Nizomida "bojxona idoralardan tashqari yoki ular orqali, bojxona nazoratidan yashirgan holda mahsulotlarni, qimmatbaho buyumlarni, mol-mulkni va barcha turdagi narsalarni davlat chegarasi orqali ruxsatisiz olib o'tish" kontrabanda deb e'tirof etilgan va javobgarlikka asos bo'lgan[6].

1917 yil 29 dekabrda Dekret tovar-mahsulotlarni import-eksport tartibini belgilab beruvchi birinchi hukumat hujjati bo'ldi. Hujjatlarda ma'lumot berilishicha, 1919 yil RSFSR XKS tomonidan "Tashqi savdo aloqalari monopoliyasini o'rnatish" haqidagi qarori qabul qilinib, unga ko'ra, xorijiy davlatlar va ularning korxonalari bilan tashqi savdo aloqalarini Tashqi savdo xalq komissarligining vakolatli organlar olib borilishi belgilanadi[7]. Davlat monopoliyasi o'rnatilgan oziq-ovqat mahsulotlarini (paxta va paxta mahsulotlari, teri, jun, ipak qurti, tamaki, non va bug'doy, choy) olib kirish va chorva mollarni qo'shni davlatlarga olib chiqib ketish kontrabandasi sezilarli darajada o'sib bordi[8]. Natijada, respublikada ommaviy kontrabandani yanada avj olishiga va bojxona tizimida ish hajmining oshishiga olib keldi.

Turkiston o'lkasiga chegara punktlaridan eng ko'p o'tkazilgan kontrabanda mahsulotlari ichida choy alohida o'ringa ega. Toshkent shahar bojxona inspeksiyasi boshlig'i K.Serdyukov tomonidan o'lkadagi barcha bojxona muassasalariga 1918 yil 21 aprelda qaror bilan qora choyga 1 funt uchun aksiz solig'i stavkasi o'rtacha 10-14 rubl, ko'k choyga esa 4-6 rubl etib belgilab berilgan. Ungacha 1916 yil 16 sentabrda qabul qilingan imperiya qonuni amalda bo'lib turgan[9].

1920 yil 29 aprelda RSFSR Tashqi savdo xalq komissarligi tomonidan "Chegaradan o'tayotgan shaxslar va ularning ashyolarini o'tkazish tartibi hamda turli shaxslar va muassasalarga beriladigan imtiyozlar to'g'risida"gi vaqtinchalik qoidalarga ko'ra, faoliyat turiga mos keladigan kasbga doir tovarlar: kitoblar, asboblardan va boshqa o'quv qurollari uchun shifokorlar, rassomlar, hunarmandlar va maxsus kasb egalari olib kirayotgan tovarlar uchun bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qilingan. Shuningdek, agar yo'lovchilar ortiqcha oziq-ovqat, yoki ruhatga kiritilmagan xo'jalik ashyolari uchun to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini to'lashni istamasalar, ularga tovarlarni chet elga qaytarib yuborish yoki bojxona omboriga quyishga ruxsat berilgan, bu buyumlar bojxona muassasalarida bir oy davomida saqlangan va ushbu muddat tugaganidan keyin ular

Tashqi savdo xalq komissarligi ixtiyoriga berib yuborilgan[10].

Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi munosabati bilan, soliq organi sifatida bojxona xizmatining roli oshdi, kontrabanda bilan bog'liq ish yuritish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirishlar kiritildi. 1922 yil yanvarda kontrabanda uchun yangi jazolarni belgilab beruvchi "Kontrabanda to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va 1922 yil yozida hukumat kontrabanda mollarni sotishning yangi tartibi va kontrabanda mahsulotlarini sotishdan tushadigan mablag'larni taqsimlashning yangi tizimini o'rnatdi. Yangi o'rnatilgan tartibga ko'ra, Sovet hukumati kontrabandani cheklash uchun hal qiluvchi iqtisodiy, siyosiy va ma'muriy choralarini ko'rdi. Kantrabandachi guruhlariga qarshi kurash olib borayotgan bojxona hodimlarini mukofotlash uchun ularga hibsga olish paytida musodara qilingan mol-mulk narxining umumiy miqdoriga qarab 1/5 miqdorda[11] mukofot puli yoki bo'lmasa musodara qilingan tovarlarni 20 %ni olib qolish huquqi berildi[12].

1922 yilda RSFSRning birinchi Jinoyat kodeksida jinoiy javobgarlikka tortiladigan kontrabanda va ma'muriy javobgarlikka tortiladigan kontrabanda o'rtasidagi farq – oddiy va malakali kontrabanda turlari ajratildi. Oddiy kontrabanda deganda import va eksport to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish tushunildi, bu uch oygacha majburiy mehnatga, kontrabanda tovarlari yoki ularning bir qismini musodara qilishga yoki 300 rublgacha jarima solishga sabab bo'ldi. Malakali kontrabanda deganda xuddi shunday qilmishlarni tijorat maqsadida takroran sodir etganlik yoki ishtirokchilar qurollangan bo'lsa, qat'iy izolyatsiya bilan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, og'irlashtiruvchi holatlarda esa o'lim jazosi bilan jazoland[13].

1924 yil 14 dekabrda qabul qilingan Nizomga muvofiq, bojxona xodimlari kontrabanda tovarlarini yashirish-da gumon qilingan shaxslarni 50 kilometrlik chegara chizig'i ichida o'zlari mustaqil ravishda, belgilangan masofadan tashqarida esa militsiya xodimlari ishtirokida tintuv qilishga hamda javobgarlikka tortishga haqli edi. Chegarada kontrabandada gumon qilinib ushlangan shaxslar bojxonaga olib ketilib so'roq qilingan, mahsulotlar ko'zdan kechirilib baholangan, toifaga ko'ra tavsiflanib bayonnoma rasmiylashtirilgan. Oddiy kontrabanda sodir etilgan taqdirda, aniqlangan mahsulotlar musodara qilinib, kontrabandachilar jarimaga tortilgan. Malakali kontrabandachilar sifatida aniqlansa mahsulotlar musodara qilingan, kontrabandachilar jinoiy javobgarlikka tortilgan[14].

Ba'zi hollarda kontrabanda tovarlarini noqonuniy tarzda olib kirishni legitimlashtirish jarayonlari ham uchrab turgan. Masalan, Artik bojxona muassasasi nazorat postlaridan kontrabanda tovarlarini qonuniy olib kirish uchun Poltoratsk kommunal boshqarmasi tomonidan ruxsat berilgan bir qator guvohnomalar aniqlangan bo'lib, guvohnomada, Tashqi savdo komissarligining Fors bo'limining Eronga ko'chib o'tadigan yo'lovchilarni uy-ro'zg'or buyumlarini olib kirishda va chiqishda to'siqlar yo'qligi haqida bo'lib, bu guvohnomalarning deyarli barchasi Fors bo'limi boshlig'i Kazachkov imzosidan so'ng beriladi va ushbu ruxsatnomaga ko'ra, ularda sanab o'tilgan uy-ro'zg'or buyumlari bilan chegara orqali kesib o'tgan shaxslar va ularning yuklari bo'yicha Nizomning 18 bandiga zid ravishda bojxona tomonidan Eronga chiqarilib tutilgan.

Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati dastlabki yillarida bojxonalarni tartibga solish bo'yicha bir qancha muammolar turar edi. Bojxonalarda korrupsiya natijasida ko'plab tovarlarni ro'yxatga olmasdan o'tkazish hollari ham uchrab turgan. Chegara postlarini qoniqarsiz ahvoli, soqchi va bojxona xizmatchilarga maoshlari oylab davomida berilmasliklari ularni noqonuniy xatta-harakatlarni olib borishiga sabab bo'ldi. Arxiv hujjatlarida bunday ma'lumotlar uchraydi

masalan, Turkman bo'limining III-toifali Xivaobod bojxona maskanida bo'layotgan voqealar haqida Toshkent Bojxona boshqarmasiga Kaspiyorti otryadi 4-bo'lim 30-chegara brigadasi komandirining hisobotida quyidagilar aks ettirilgan: "Oxirgi vaqtlarda chegarabo'yi brigadalari juda ko'p qonunbuzarliklar qilmoqda. Soqchilar kontrabanda tovarlarini tutib qolib, mustaqil ravishda o'zlariga qaytadan sotmoqdalar... Har bir chegarachining maqsad va orzusi kontrabandachilarni ushlab va ulardan pul undirib olish bo'ldi... Tez orada chegara qo'riqchilaridan ishonchlari qolmadi... Maoshlari oylab xattoki yillab berilmasligi tufayli turli shartlar evaziga kontrabanda tovarlarini o'tkazib yubormoqdalar, boshqa joylarda esa qonuniy yo'llar bilan ushlab, musodara qilish tazyiqi ostida pul undirib olmoqdalar..." [15]. Ba'zan esa, soqchilar chegara atrofida yashaydigan qishloq aholisini bozordan uy-ruzg'or uchun olgan oziq-ovqat maxsulotlarini (guruch, bug'doy, mayiz, choy) kontrabanda tovarlar degan baxona bilan tortib olganlari ma'lum [16]. Bunga sabab qilib esa chegara hududidan 7 verstgacha tintuv qilish huquqi mavjudligi ko'rsatilar edi.

Turkiston ASSR Toshkent shahar bojxona nazorati boshqarmasi tomonidan o'lkadagi barcha bojxona muassasalarida tungi vaqtda kontrabandaning kelib tushishi va yo'lovchilarning chegaradan o'tishiga qarab, idoradagi masul xodimlar va ombor bojxona ombori binolarini qo'riqlash bo'yicha inspektorlarning navbatchiligi cheklovsiz va kunning barcha soatlarida belgilanishi nazoratini olib borishgan.

Bojxona xodimlarini kontrabanda harakatlarini oldini olishda faqat naqd pul ko'rinishida emas, musodara qilingan tovarlardan natura shaklida, ba'zi tovarlarni tutib qolganliklari uchun esa ashyo va buyumlar bilan ham mukofotlash hollari uchrab turgan. Lekin, ushlab turilgan ashyoni bir necha shaxslar o'rtasida taqsimlashda qiyinchilik yuzaga kelgan. Ba'zan esa, berilishi lozim bo'lgan ashyo-tovarlar xodimlar tomonidan bojxona muassasidan olti oy mobaynida olib ketilmagan vaqtlarida, bojxona muassasasi tomonidan ashyo va tovarlar ijtimoiy ta'minot fondiga kirim qilingan. Ba'zan esa, bojxona organining buyrug'i bilan 1921 yilning 17 oktabrdagi dekretning 13-moddasiga muvofiq, qoldirilgan, olib ketilmagan ashyolar Tashqi savdo xalq komissarligining ijtimoiy fond mulkchiligiga ko'ra o'tkazilib, pul mukofoti iarzida ham beriladigan bo'ldi.

1921 yil 17 oktabrdagi Tashqi savdo xalq komissarligining "Xalq Komissarlari Kengashining jismoniy shaxslar va jamiyatlarning mol-mulkini rekvizitsiya qilish va musodara qilish tartibi to'g'risidagi" № 43 sonli qarori asosida quyidagilar bojxona organlari tomonidan musodara qilinadi edi:

bojxona nazorati chegara punktlaridan tashqari davlat chegarasidan foydalaniladigan va olib o'tiladigan narsalar;

bojxona nazoratidan yashirilgan holda, pochta jo'natmalarida har qanday hiyla yoki noto'g'ri deklaratsiya bilan olib chiqib ketilishi taqiqlangan yoki olib chiqilayotgan

tovarlar, pullar va barcha turdagi buyumlar va qimmatbaho buyumlar;

tovarlar va barcha turdagi tovarlar: ularni olib kirish yoki olib chiqishga ruxsat berilgan bo'lsa-da, belgilangan yig'implarni to'lamaslik uchun bojxona nazoratidan yashiriladi;

RSFSR uchun siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan hujjatlar, qarashlar;

Maorif Xalq Komissarligining ruxsatisiz xorijga olib chiqilgan qadimiy san'at buyumlari.

Shuningdek, bojxona organlarida yuqorida sanab o'tilgan buyumlardan tashqari, davlatga tegishli harbiy ahamiyatiga ega buyumlarda foydalanish ruxsatnomalari bo'lmasa davlat tomonidan tegishli tartibda o'z saqlovchilarini jinoiy javobgarlikka tortgan holda olib qo'yilar edi: a) qurollar, harbiy texnika va samolyotlar; b) telegraf va telegraf mulki (buyumlari); v) bekor qilingan qimmatli qog'ozlar; d) avtomobillar va mototsikllar. Albatta, chegaradan o'tayotganda amaldagi hokimiyat organlari tomonidan belgilangan muddatlarda ushbu narsalarni ixtiyoriy ravishda topshirgan shaxslarni javobgarlikdan ozod qilar edi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida inson salomatligiga zarar keltiradigan hamda qa'tiyan taqiqlangan mahsulotlar ichida giyohvand moddalari alohida nazoratga olinib boshlagan. Dunyo bo'ylab giyohvand moddalar, narkotikalar, opium, psixotrop moddalarni keng masshtabda tarqalishini oldini olish maqsadida, 1912 yilda dastlab 31 mamlakat imzolab, ulardan faqatgina 16 davlat ratifikatsiya qilgan Gaaga konvensiyasi qabul qilindi. Konvensiyaga muvofiq davlatlar o'z qonunchiligiga o'zgartirish kiritish lozim edi.

Turkiston o'lkasida giyohvand moddalar kontrabandasi asosan Eron va Xitoyda kirib kelgan. Bu mahsulotlar tamaki importi sifatida qayd qilingani natijasida katta qismi qonuniy kirib kelishga xizmat qilgan. Turkiston ASSR Moliya komissarligining 1918 yil 4 oktabrdagi № 7 sonli bo'yruqida tamaki va inson salomatligiga ziyon keltiruvchi mahsulotlarini kontrabanda yo'llari orqali tashishni cheklash, Turkiston XKS tomonidan Toshkent bojxona inspeksiyasiga junatgan № 2223 sonli xabarnomasida esa barcha bojxona muassasalaridan musodara qilingan giyohvand moddalar Sog'liqni saqlash xalq komissarligi idorasiga manzilli yuborish ko'rsatmasi berilgan. SSSR da 1922 yilda giyohvand moddalarni olib kirish, saqlash va sotishda jinoiy javobgarlik tayinlangan qonunlar qabul qilindi [17].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida mahalliy ishlab chiqarishni himoya qilish bahonasida yuqori bojxona to'lovlari, ocharchilik va qashshoqlik darajasining ko'tarilishi natijasida oziq-ovqatga yuqori talabni oshishi holati, chegara nazoratining yetarli emasligi, bojxonalarda zaif xavfsizlik tizimi va bojxonachilarning kontrabandaga tez va samarali javob bermasligi kabi sabablar Turkiston bojxona tizimida kontrabandaning rivojiga olib keldi.

ADABIYOTLAR

1. Кейлин А.Д. Морские торговые суда и грузы в военное время. М.:1941
2. Allanova A. Qonunga hilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish. Yuridik fanlar axborotnomasi-Vestnik юридических наук-Review of Law Sciences 2 (2018) 139-14; Muhammadaliyev E. Ayrim xorijiy davlatlarda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalari. Yuridik fanlar axborotnomasi-Vestnik юридических наук-Review of Law Sciences 3 (2018) 137-141; Musayev J, Aslonov F. Narkotik moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda bojxona organlarining roli. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 / Volume: 1, ISSUE: 6; pp. 641-644
3. Кисловский Ю. Г. Контрабанда: история и современность. М., 1996; Кисловский Ю.Г., История таможенного законодательства России о контрабанде (конец XIX — начало XX в.). М, 2000; Родина Л.Ю. Контрабанда. История, социально-экономическое содержание и ответственность. Ростов н/Д, 2001; Курбонов.Ч.М. Из истории формирования единой таможенной линии и организации охраны границ Туркестанского генерал-губернаторства во второй половине XIX в. The Newman in Foreign policy. 2017. №39. 50-51 с; XIX asr oxirida Turkiston - Xitoy chegaralarida boj masalalari haqida. Islom tafakkuri jurnali. 2020/12. №4, 30-34 sahifalar; Geolitical and economic

- interests of the Russian empire in the second half of the 19th century in Central Asia. *PalArch's Journal of Archeology of Egypt / Egyptology*. 2020/12. 17 (7) 2020. 8521-8546 Pp;
4. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'xhat, 15, 36, 101-107, 125, 196 yig'majild, O'zMA, R-608-fond, 2 ruyhat, 49,73, 164, 187-yig'majild hujjatlari
 5. Кисловский Ю. Г. История таможенного дела и таможенной политики России. 3-е изд.доп. / Под общ. ред. А. Е. Жерихова. - М: РУСИНА-ПРЕСС, 2004. – с. 292.
 6. Хронологическое собрание законов, указов президиума Верховного совета и постановлений правительства РСФСР. Том первый. 1917-1928 гг. Гос.издат. юрид.литературы. Москва.: 1959 г. – 657 с.
 7. O'zMA R-8-fond, 1-ro'xhat, 4-yig'majild, 63-varaq.
 8. O'zMA R-18-fond, 1-ro'xhat, 12-yig'majild, 30-varaq.
 9. O'zMA, R-330-fond, 1-ruyhat, 1-yig'majild, 115-varaq.
 10. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'xhat, 5-yig'majild, 29 a,b va 30 a,b varaqlar.
 11. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'xhat, 13-yig'majild, 10-varaq.
 12. Кисловский Ю. Г. История таможенного дела и таможенной политики России. 3-е изд.доп. / Под общ. ред. А. Е. Жерихова. - М: РУСИНА-ПРЕСС, 2004. – с. 296.
 13. RSFSR Butunrossiya MIQning 1922 yil 1 iyundagi "RSFSR Jinoyat kodeksi to'g'risida"gi Qarori. Qarang: Библиотека нормативно-правовых актов СССР https://www.libussr.ru/doc_ussr/ussr_1338.htm
 14. Хронологическое собрание законов, указов президиума Верховного совета и постановлений правительства РСФСР. Том первый. 1917-1928 гг. Гос.издат. юрид.литературы. Москва.: 1959 г. – 657 с.
 15. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'xhat, 1-yig'majild, 78-varaq.
 16. O'zMA, R-330-fond, 1-ruyhat, 8-yig'majild, 2-varaq; 9-yig'majild, 1-varaq; 11-yig'majild, 6-varaq; 12-yig'majild, 1-varaq; 13-yig'majild 3-varaq; 15-yig'majild, 7-varaq;
 17. Угаров Б.М. Международная борьба с контрабандной. –М.: Международные отношения. 1981. – С.71;



UDK: 950:796.5(021)

Azamat ERALOV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti
E-mail: azamat.eralov.95@mail.ru

QarMII professori, t.f.d., Y.Ergasheva taqrizi asosida

BUXORO VILOYATIDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro viloyatida turizm sohasining rivojlanish istiqbollari haqida so'z boradi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida Buxoro viloyatida turizm sohasining rivojlanish istiqbollari bo'yicha o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro viloyati, turizm, sayyohlik, rivojlanish, istiqbollari.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье говорится о перспективах развития туризма в Бухарской области. На основе научных данных автор на основе доступной литературы изучил и проанализировал конкретные аспекты перспектив развития туризма в Бухарской области.

Ключевые слова: Бухарская область, туризм, развитие, перспективы.

DEVELOPMENT PROSPECTS OF TOURISM IN BUKHARA REGION

Annotation

This article talks about the development prospects of tourism in Bukhara region. Based on scientific data, the author studied and analyzed the specific aspects of the development prospects of tourism in Bukhara region based on available literature.

Key words: Bukhara region, tourism, development, prospects.

Kirish. Dunyoda turizmning 200 dan ortiq turlari bo'lib, ular orasida ziyorat turizmi tez rivojlanayotgan, istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ilgari tarixiy, madaniy turizm bilan cheklanib qolingan bo'lsa, oxirgi besh yilda safari (cho'l), etnografik, gastronomik yangi yo'nalishlar qatorida ziyorat turizmiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Chunki O'zbekiston bu borada yuqori salohiyatga ega bo'lib, imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmayotgani ayni haqiqat. Islom sivilizatsiyasi beshigi, ma'rifat va madaniyat markazi sifatida tanilgan yurtimizda dinimiz rivoji, jahon ilmi fani taraqqiyotiga hissa qo'shgan allomalar, mutafakkir olimlar, ulamolar va ulug' avliyolar etishib chiqqan. Dunyoda ularning ziyoratgoh va muborak qadamjolarini ziyorat qilishga ehtiyoj yuqori. Ayni shu maqsadda, ya'ni o'zga madaniyatlar bilan yaqindan tashishish, boshqa hudud tarixi, muqaddas ziyoratgohlari haqida tarixiy bilimlarga ega bo'lish, muborak manzillarni ziyorat qilishga qaratilgan ziyorat turizmi shakllandi.

Bugungi kunda turizm dunyoning eng yirik va tez sur'atlarda rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, mamlakatlarda va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi-ni tezlashtirishda muhim o'rin tutmoqda. Jahon Sayyohlik va Turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda turizmning jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10,3 foizi, jami ish o'rinlarining o'ndan bir qismi, yani 330 million (2018 yilda 319 million) ish o'rni yoki umumiy ish o'rni hajmining 10,4 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2019-yilda butun jahonda yaratilgan jami yangi ish o'rinlarining to'rtadan biri (2018-yilda har beshitadan bittasi aynan turizm sohasida yaratilgan. Ketma-ket to'qqiz yil davomida turizm sohasidagi yalpi ichki mahsulotining o'sishi jahon yalpi ichki mahsulotining o'sishidan yuqori bo'ldi. Xususan, 2019-yilda turizm sohasida yalpi ichki mahsulotining o'sishi 3,5%ni,

jahon yalpi ichki mahsulotning o'sishi esa 2,5%ni ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda turizm sohasiga mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shuvchi tarmoq sifatida qaralib, tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida zaruriy me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Respublikada sayyohlik industriyasini jadal rivojlantirish maqsadida 2016-2022-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi bir qator Farmon va qarorlari qabul qilindi[1].

2021-yilda Buxoroga kelgan sayyohlar soni 2,2 mln nafarga yetib, bunda, xorijiy turistlar soni 48,9 ming nafardan oshgani kuzatildi. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan ichki turizm qariyb 8 baravarga, xorijiy sayohlar soniga nisbatan 3,5 baravarga ortdi.

Ziyorat turizmi yo'nalishida to'g'ri targ'ibotni yo'lga qo'yish va ziyorat ob'ektlari haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida 2021-yil 24 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 100-sonli Qarori qabul qilinib, ushbu qarorga muvofiq Ziyorat turizmini rivojlantirishni muvofiqlashtirish kengashi tashkil etildi[2].

Tahlillarga ko'ra, yo'l bo'ylarida joylashgan 4 mingga yaqin ma'muriy binodan servis sohasida samarali foydalanish, 8 ta markaziy ko'chadagi inshootning tom qismida yuzdan ortiq kafeteriy va restoran barpo etib foydalanishga topshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Hududda joriy yilda xorijiy va mahalliy sayyohlarga doimiy xizmat ko'rsatadigan restoranlarning soni 81 tani tashkil etadi. Ayniqsa, bino-inshootlar tom qismlarida terassalar faoliyatini kengaytirish orqali xizmatlar sifati va hajmini kengaytirib, qadim shahar bo'yicha 2021-2022-yillarda hududiy investitsiya dasturlari hamda tashabbuskor tadbirkorlar

tomonidan 54 ta terassa tashkil etiladi. Bir vaqtning o'zida 2 788 nafar mijozga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Asosiysi, yangicha yo'nalish deya e'tirof etilayotgan bu loyiha mahalliy va xorijiy sayyohlarda birdek qiziqish uyg'otmoqda[3].

Mamlakatimizdagi mavjud ziyorat turizmi salohiyatidan yanada unumli foydalanish, O'zbekiston zaminini dunyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida namoyon qilish, jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarning yuqori e'tiroflariga sazovor bo'lish, shuningdek, ziyorat turizmi xizmatlarini diversifikatsiya qilish va turizm eksportini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son Farmoni[4] ijrosini ta'minlash maqsadida 2022-yil 20-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi"ni tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 282-sonli Qarori[5] qabul qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston bugun dunyoga yangi imkoniyatlarni ochayotgan, barqaror rivojlanayotgan, ziyorat va sayohat uchun xavfsiz mamlakat sifatida yanada kengroq tanilmoqda. Prezidentimiz tomonidan "Tabarruk ziyorat" turizm konsepsiyasining tasdiqlanishi, yaqinda bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammitida O'zbekiston a'zo davlatlarda 2023-yilni turizmi rivojlantirish yili deb e'lon qilishi uning xalqaro ahamiyatini yaqqolroq namoyon etdi. Albatta amalga oshirilayotgan islohotlar xorijliklarning yurtimizga tashrifi uchun muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda Buxoroda 29 ob'ekt ziyorat turizmi yo'nalishiga kiritilgan. Lekin vohada yana boshqa ko'plab ziyoratgohlar mavjud bo'lib, ularda infratuzilma yaxshi bo'lmagani bois mahalliy darajada qolib ketgan. Birgina Buxoroning 500 gektarlik eski shahar qismida 83 ta, voha tumanlarida 200 dan ortiq shunday ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar mavjud. Prezidentimiz topshirig'iga ko'ra Buxoroda ziyorat turizmi ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash uchun mahalliy budjetdan 40 milliard so'm ajratilgani ziyoratgohlarni xalqaro yo'nalishga kiritishda muhim qadam bo'ladi[6].

Hozirgi kunda Buxoro viloyatida bir kunda 6 mingga yaqin mehmonlarga xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud. 829 ga yaqin tarixiy-me'moriy obidalar mavjud bo'lib, davlat muhofazasiga olingan. 118 ta tarixiy obidalar YUNESKONing Butunjaxon madaniy meros ob'ektlari ro'yxatiga kiritilgan. 367 ta mehmonxonalar; 76 dan ortiq milliy va xorijiy restoranlar;

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida yurtimizga kelayotgan xorijlik tabiatsevarlar safi kengayishida tabiatni muhofaza qilishga qaratilayotgan e'tibor muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizm rivojlangan mamlakatlarda raqobat yaxshi rivojlangan, sayyohlar oqimining ko'pligi sanoat ob'ektlarining to'liq quvvat bilan ishlashi va narx bo'yicha raqobatlashish imkonini beradi. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, jumladan, boshqa hududlarda ham amalga oshirilimgan[7].

Buxoro viloyatining turli noyob va jozibali tabiat manzaralari, agrolandshaftlari, diqqatga sazovor bo'lgan madaniy va tarixiy obidalar rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirishga muhim asos bo'ladi. Bunday hududlar o'zlarining davolash va salomatlikni tiklash xususiyatlariga ega bo'lgan manzarali tabiati, qulay iqlim sharoitlari, mineral suvlari, davolovchi balchiq qatlamlari hamda boshqa shart-sharoitlari bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda viloyatdagi mavjud imkoniyatlardan turizm va rekreatsiya maqsadlarida foydalanishni yo'lga qo'yish va bunda xorijiy tajribalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda turizm sohasini rivojlantirish orqali viloyat iqtisodiyotini ko'tarish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tarmoqni rivojlantirishning geografik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Buxoro viloyati hududlarining turistik imkoniyatlarini aniqlash va turizmning o'ziga xos turlarini tashkil etishning ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir[8].

Bugungi kunda Buxoro tajribasi asosida joylarda 54 ta ochiq terassa tashkil etildi. 1350 ta yangi ish o'rni yaratilib, mehmonlarga yuqori darajada gastronomik xizmat ko'rsatish boshlandi. 2023 yil yakuniga qadar turizm sohasini rivojlantirish maqsadida qadim shaharda yana 15 ta mehmonxona, 20 ta oilaviy mehmon uyi, 10 ta hostel ishga tushiriladi. Ularning barchasida ochiq terassa, restoran va kafeteriyalar tashkil etish hisobidan 4200 ta yangi ishchi o'rni yaratish choralari ko'rilmogda.

Shuningdek, Buxoro shahrining salohiyati va mavjud imkoniyatidan foydalangan holda yana 8 ta markaziy ko'chada joylashgan tashkilotlarning 50 taga yaqin zamonaviy dizayndagi binolari birinchi qavatida yuzdan ziyod restoran va kafeteriya, servis joylarini tashkil etish imkoniyati o'rganilmogda.

"2022 – 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning qarori qabul qilindi[9]. (28.09.2022-yildagi 543-sonli)

Qarorga muvofiq, Buxoro viloyatidagi 800 dan ziyod madaniy ob'ektlarni birma-bir restavratsiya qilish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Buxoro shahrida "Street Food" gastronomik ko'chasi tashkil etiladi va gastronomik ko'chani tashkil qilish uchun mo'ljallangan ko'cha va er maydonlarini tadbirkorlarga muayyan muddatga o'rnatilgan tartibda vaqtinchalik ijaraga berish choralari ko'riladi.

"Qadimgi Poykent" arxeologiya merosi ob'ektini muhofaza qilish, tadqiq etish, muzeylashtirish choralari ko'rib, arxeologiya parki yaratiladi. Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi hamda Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondidagi noyob va alohida qiymatga ega bo'lgan nashrlarni alohida kolleksiya holida Buxoroda saqlanadi va muhofaza qilinadi.

Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi hamda Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi fondidagi qo'lyozmalar, noyob va alohida qiymatga ega bo'lgan nashrlarni tahlil qilgan xolda, YUNESKONing "Jahon xotirasi" ro'yxatiga kiritilishi bo'yicha zarur choralarning ko'riladi.

Buxoro viloyati hokimligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Qurilish vazirligi bilan birgalikda "Turizm mahallasi", "Turizm ovuli", "Turizm qishloqlari"ning ichki yo'llari, ichimlik suvi va boshqa infratuzilma ob'ektlarini ta'mirlash ishlarini keyingi yillardagi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlariga kiritiladi hamda uning doirasida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Qarorga asosan, 2026-yilga qadar Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari quyidagicha:

Ichki turistlar tashrifi sonini 4,1 mln ga etkazish;
Xorijiy sayyohlar sonini 1 ming 800 tagacha oshirish;
Xizmatlar eksport miqdorini 300 mln AQSh dollarga etkazish;

Mehmonxonalar nomer fondining bandlik darajasini 93 foizga etkazish;

Mehmonxonalar sonini 258 taga etkazish;

Oilaviy mehmon uylari sonini 345 taga etkazish;

Xostellar sonini 76 taga etkazish.

Xulosalar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida maqsadli turizm xizmatlarini ko'rsatish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sayyohlarni noyob tarixiy va

madaniy-me'moriy meros bilan keng tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mintaqani madaniy-ko'ngilochar tadbirlar markaziga aylantirish ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshirildi.

Buxoro viloyati yurtimizning eng ko'p tarixiy-madaniy meros obyektlariga ega hududlaridan hisoblanadi.

Voha hududlaridagi ziyoratgohlarga sayyohlar tashrifi yildan yilga oshib bormoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ushbu hududlardagi ayrim qarovsiz ahvoldagi ziyoratgohlar qayta ta'mirlanib, u yerga sayyohlar tashrifi qayta tiklandi.

ADABIYOTLAR

1. Eralov A. Samarqand viloyatining turizm salohiyati. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi, 2023 yil 12/5-son. – B.59-62. (07.00.00. №88).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-sonli "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.02.2021-y., 09/21/100/0169-son
3. Norboyeva U. Buxoroda turizm salohiyati va imkoniyatlari. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. 2023-yil, fevral soni. №2/2.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-sonli "O'zbekiston respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2021-y., 06/21/6165/0104-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 282-sonli "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi"ni tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2022-y., 09/22/282/0445-son
6. Xasanova G., Pardayev U. Buxoro viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirishni takomillashtirish yo'llari. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2.
7. Yu.A.Ergasheva, A.J.Eralov. History and prospects of development of eco-tourism in kashkadarya region. III "International Conference on Improving Energy Efficiency, Environmental Safety and Sustainable Development in Agriculture". Web of Conferences, 2023.
8. Komilov Z. Turizm – Buxoro iqtisodiyotining muhim drayveri. Turkic world. 2023-yil 10-may soni.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 543-sonli "2022—2026-yillarida Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2022-y., 09/22/543/0866-son.



Lola ISHMUHAMMEDOVA,
Qarshi davlat universiteti magistranti
E-mail: lolaismuhammedova@gmail.com

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, (PhD) A.Xoliqov taqrizi asosida

FINANCIAL POLICY IN UZBEKISTAN AND ITS IMPACT ON SOCIAL AND ECONOMIC LIFE (IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE)

Annotation

This article is called financial policy in Uzbekistan and its impact on social and economic life (in the first years of independence) and covers the processes of financial policy organization, gradual transition to a market economy, and the first years of independence in terms of improving the lifestyle of the population. passed.

Key words: Financial policy, market economy, independence, budget policy, currency relations, financial system, inflation, business, social protection.

ФИНАНСОВАЯ ПОЛИТИКА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ(В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ)

Аннотация

Данная статья называется «Финансовая политика в Узбекистане и ее влияние на социально-экономическую жизнь (в первые годы независимости)» и освещает процессы организации финансовой политики, постепенного перехода к рыночной экономике, а также первые годы независимости в условиях улучшения образа жизни населения.

Ключевые слова: Финансовая политика, рыночная экономика, независимость, бюджетная политика, валютные отношения, финансовая система, инфляция, бизнес, социальная защита.

O‘ZBEKISTONDA MOLIYA SIYOSATI VA UNING IJTIMOY IQTISODIY HAYOTGA TA’SIRI(ILK MUSTAQILLIK YILLARIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada O‘zbekistonda moliya siyosati va uning ijtimoiy iqtisodiy hayotga ta’siri (ilk mustaqillik yillarida) deb nomlangan bo‘lib moliyaviy siyosatni tashkil etish jarayonlari, bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o‘tish hamda aholi turmush tarzini yaxshilash borasida mustaqillikning dastlabki yillari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Moliyaviy siyosat, bozor iqtisodiyoti, mustaqillik, byudjet siyosati, valyuta munosabatlari, moliya tizimi, inflyatsiya, biznes ijtimoiy himoya.

Kirish. Har bir davlatning rivojlanishi shubhasiz, uning moliyaviy iqtisodiy siyosatiga bog‘liq hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib jahon mamlakatlari o‘rtasida iqtisodiy taraqqiyot tendensiyasi asta-sekinlik bilan jadallasha boshladi. Ayni bu jarayon moliya siyosatida ham o‘z ta’sirini ko‘rsata boshladi. Har bir davlatning rivojlanishi, uning iqtisodiy jihatdan barqaror yuksalishi davlatning olib borgan moliyaviy islohotlariga, rejalariga hamda strategik dasturlariga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

So‘ngi yillarda jahonning ko‘pgina mamlakatlarida iqtisodiy o‘zgarishlar tobora jadallashib bormoqda. Dunyo davlatlarining bir-biriga nisbatan iqtisodiy jazo choralari qo‘llashi o‘sha davlatning moliya tizimiga, iqtisodiy faoliyatiga salbiy ta’sirlarini ko‘rsatib kelmoqda. Dunyo mamlakatlari umumiy bir iqtisodiy tizimga birlashganki, bu jarayon mamlakatlarining bir-biri bilan moliyaviy hamda iqtisodiy siyosatni to‘g‘ri tashkil etilishini talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Moliya masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar juda qadimda paydo bo‘lgan. Moliya bo‘yicha ilk ilmiy ishning birinchi yevropalik muallifi Ksenofont (eramizdan avvalgi 430-355-yillar) hisoblanadi. Uning shu xususdagi asari “Afina respublikasining daromadlari to‘g‘risida” deb nomlangan. Buyuk mutafakkir Aristotelning (eramizdan avvalgi 384-322-yillar) moliya sohasidagi qarashlari uning “Afina davlat tuzilmasi” deb nomlangan asarida bayon qilingan. Eramizning 948-yilida soliqlar to‘g‘risida asar yozgan Qadam ismli arab olimining nomi ham fanda ma’lum. F.Akvinskiy (1225-1274 yillar) ilk

marta qirolning soliqlarni undirish borasidagi huquqini asoslashga uringan.

Moliya bo‘yicha ishlarning birinchi mualliflari qatoriga F.Petrarka, D.Karaf, Bernardo, F.Gvichardini, Dj.Botero, N.Makiaveli va boshqa italiyaliklarni ham kiritish mumkin.

XVII asrda moliya nazariyasining rivojlanishiga ingliz iqtisodchilari katta hissa qo‘shgan. Ularning orasidan T.Men, Dj.Lokk, T.Gobbs, P.Gautonlarni alohida ajratib ko‘rsatish kerak.

L.fon Sekendorf, S.Pufendorf, I.Yusti va I.Zonnen-fels kabi nemis olimlari XVII-XVIII asrlarda moliya fanini boyitishga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar. Ular fanga kameralistikaning nemis maktabi vakillari sifatida kiritilgan. I.Yusti 1746-yilda nashr etilgan “Moliya mohiyatining tizimi” asarida moliya to‘g‘risidagi kameralistik maktab vakillarining qarashlarini umumlashtirdi. Bu asrda birinchi marta moliya fani va moliyaviy siyosat ajratilib ko‘rsatilgan (chegaralangan).[1]

“Moliya” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “pul mablag‘lari” ma’nosini anglatadi. Bu so‘z ona tilimizda quyidagi ko‘rinishlarda ishlatiladi:

- maqsadli pul fondlarini hosil qilish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar majmui; pul mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash, ulami sarf qilish tizimi (masalan, moliya yili, moliya kapitali, moliya tizimi);

- biror shaxs, oila, jamoa, muassasa, tashkilot yoki davlat tasarrufidagi pul mablag'lari (masalan, korxonalar moliyasi);

- shunday (moliya) ishlar(i) bilan shug'ullanuvchi davlat organi (so'zlashuv tilida). Arab tilidagi «mo!», ya'ni «boylik, mulk; pul jamg'armasi», shuningdek, «moliyat», ya'ni «pul mablag'lari; soliq» so'zlari ham moliyaga daxldordir.[2]

Tadqiqot metodologiyasi. Moliyaviy siyosat moliyaning o'zida bevosita mujassam bo'lgan boshqaruvning salohiyatli imkoniyatlarini, ishning aniq metodlari, moliya tizimi (boshqaruv sub'ektlari) organlarini tashkil qilish bilan bir joyga bog'lashga imkon beradi. Dunyoning barcha mamlakatlarida moliyaviy siyosat moliya tizimi orqali amalga oshirilib, uning faoliyati quyidagi prinsiplar asosida quriladi:

- moliya tizimi bo'g'inlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish;

- barcha moliyaviy muassasalar funksiyalarining umumiyliigi;

- barcha quyi boshqaruv organlarining faol ishtirokida markazdan umumiy boshqarish.

Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy metodologik prinsiplari quyidagilardan iborat:

- oxirgi maqsadga bog'liqlik;

- xo'jalikdagi barcha tarmoqlarning makroiqtisodiy mutanosibligi;

- jamiyat a'zolarining manfaatariga muvofiqliigi;

- haqiqiy imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish [3].

O'zbekiston 1991-yil mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng o'zining moliyaviy mustaqilligiga erishish borasida bosqichma-bosqich tizimli faoliyatni amalga oshira boshladi. Mustaqillikdan avval mamlakatimiz moliya siyosatini sovet ittifoqi boshqaruvida bo'lib har bir moliyaviy maqsadlar, rejalar to'g'ridan to'g'ri markazdan boshqarilar edi.

Mustaqillikning ilk yillarida davlatimizning moliyaviy siyosatini isloh etish, yangi boshqaruv faoliyatini amalga oshirish bir muncha qiyin kechdi. Buning sababi mamlakatimizning iqtisodiy siyosatida turg'unlik bir tomonlama boshqaruv siyosatining uzoq yillar davomida saqlanib kelganligi ko'pgina muammolarni bartaraf etilishiga xalaqit qildi.

1993-yilda e'lon qilingan "Taraqqiyotning o'zbek modeli"ni ishlab chiqilishi pul, moliya siyosatida asosiy o'zgarishlarni hamda rivojlanish tendensiyalarini keltirib chiqardi desak, to'g'ri bo'ladi. "Taraqqiyotning o'zbek modeli" deb e'tirof etilgan tamoyillarda aholini ijtimoiy himoyalash, iqtisodiyotni liberallashtirish, qonun ustuvorligiga erishish hamda davlat ishtiroki yordamida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish vazifalari ustuvor belgilab qo'yilgan edi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bozor munosabatlariga o'tishda O'zbekiston tanlab olgan yo'l - respublika va uning xalqi manfaatlariga nihoyatda mos keladigan ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiyotidir" [4].

Moliya pul munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham uning roli va ahamiyati pul munosabatlarining iqtisodiy munosabatlar tizimida qanday o'rinni egallaganligiga bog'liq. Bir vaqtning o'zida moliya puldan o'zining mazmuni va bajaradigan funksiyalari bo'yicha farqlanadi. Agar pul umumiy ekvivalent bo'lib, uning yordamida umumlashtirilgan ishlab chiqaruvchilarning mehnat xarajatlari o'lchansa, moliya esa yalpi ichki mahsulot (YaIM) va milliy daromad (MD)ni taqsimlash va qayta taqsimlashning iqtisodiy instrumenti, pul mablag'lari

fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish qurolidir [5].

Sovet ittifoqi tugatilgandan so'ng, ushbu ittifoq tasarrufidagi davlatlarning mustaqillikni qo'lga kiritishi, ularning o'z iqtisodiyotini qayta tiklashi moliya pul siyosatida yangi boshqaruv tizimiga o'tilishi barcha zaruriy ehtiyoj sifatida qarab boshlandi. Bu o'zgarishlar aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham bir muncha pasayishga olib keldi. Bu jarayonda mustaqil O'zbekiston ham o'zining iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy siyosatini amalga oshirish fursati yuzaga kelganligini zarurati tug'ilgan edi.

Tahlil va natijalar. 1992-2000-yillar oralig'ida mamlakatimizda moliya siyosatini yangi boshqaruv tizimini joriy etish, moliyaviy resurslarni aniqlash, ularni manbalarini yo'lga qo'yish mamlakat iqtisodiyotini oyoqqa turg'izish masalasi ustuvor bo'lib qoldi. O'tgan yillar mobaynida O'zbekistonning milliy valyutasini ishlab chiqilishi, moliyaviy resurslarni takomillashuvida bosqichma-bosqich ushbu faoliyatga o'z maqsadlarini qaratib boshladi.

Mustaqillikning ilk yillarida moliyaviy mustaqillikka erishish, davlat byudjetini shakllantirish, moliyaviy resurslarni izlab topish, aholi daromadlarini oshirish, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning moddiy ehtiyojlarini qondirish o'sha davrning vazifalaridan biridir.

Bu borada mustaqil O'zbekiston sanoati rivojlangan moliyaviy mustaqillikka ega bo'lgan bir qator davlatlarning moliyaviy islohotlarini o'rganib, ulardagi eng muhim o'zgarishlarni tahlil etib, o'z iqtisodiyotini moliya siyosatini rivojlanishiga harakat qildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov 2006-yil mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yekunlari va 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan.

Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida mamlakatni moliyaviy siyosatini rivojlantirish aholini turmush darajasini yaxshilash, mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish o'ta muhim masala ekanligini ta'kidlab o'tdi. Yig'ilishda quyidagilar, 2007-yil iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

Birinchi, barqaror va munosib sur'atlarda o'sishni hamda tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashni ta'minlash, uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirishni ta'minlash;

Ikkinchi, biznes, eng avvalo, xususiy biznes uchun mumkin qadar qulay sharoitlar yaratish va davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil pasaytirib borish;

Uchinchi, xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ishlarini barcha choralalar bilan kuchaytirish.

To'rtinchi, mehnatga haq to'lash va aholi turmush sifatini izchil oshirishni ta'minlash;

Beshinchi, kichik biznes va tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ushbu asosda aholini ish bilan band etish va farovonligini oshirish muammolarini hal etish;

Oltinchi, bank-moliya tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'lamlarini kengaytirish;

Yettinchi, kommunal xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish [6].

Mustaqillikning dastlabki 15 yillik oralig'ida mamlakat iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotiga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarini takomillashtirishga qaratilgan boshlandi. Moliya siyosatini amaga oshirishda mustahkam davlat byudjetini barqaror bo'lishi barcha barchasi iqtisodiy resurslarga bog'liq hisoblanadi. Bu borada aholining turmush sharoitlarini yaxshilanishi, ularning daromadining oshishi,

shubhasiz amalga oshirilayotgan moliyaviy siyosatga bog'liqdir.

Moliya siyosati, byudjet siyosati - davlat umumiy iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi; davlat faoliyatini ta'minlash, mamlakat farovonligini oshirish maqsadlarida moliya tizimini tashkil etish, moliyaviy resurslarni safarbar etish va ulardan foydalanish, davlat oldida turgan ichki va tashqi siyosat vazifalarini bajarish buyicha amalga oshiriladigan barcha davlat tadbirlarini uz ichiga oladi.

Moliya siyosati ta'sir ko'rsatadigan asosiy ob'ektlar - aholining turli qatlamlari, davlat institutlari (tashkilotlari), sanoat va xo'jalikning barcha sohalari, mintaqalar va mamlakatlarning umumiy hududi. Moliya siyosatining asosiy quroli va tarkibiy qismi - davlat byudjeti daromadlari va harajatlari, zayomlari, soliq imtiyozlaridir. Davlat tomonidan tanlagan iqtisodiy siyosatga va maqsadlarga qarab ayrim bandlar bo'yicha harajatlarni ko'paytirish yoki kamaytirish orqali mamlakat hayotining u yoki bu tomonlariga, davlat institutlariga, iqtisodiyot tarmoqlariga, mas, harbiy harajatlarni yoki ilmiy-texnik taraqqiyot uchun harajatlarni ko'paytirib yoki kamaytirib, faol ta'sir etish mumkin. Davlat daromadlar, ularning miqdori, soliqlar tizimi orqali iqtisodiy o'sish sur'atiga, aholi farovonligiga ta'sir ko'rsatishi, inflyasiya jarayonlarini va h.k.ni boshqarishi mumkin [7].

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizning o'tgan mustaqillik davrining dastlabki yillari iqtisodiyotni tiklash moliya boshqaruvini takomillashtirish, pul islohotlarini o'tkazish, shuningdek, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan davr bo'ldi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlar to'g'ri, shahffof, ochiq, tashkil etilsa, shubhasiz, bu moliyaviy yangilanishlar mamlakat iqtisodiyotiga aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmushiga ijobiy ta'sir etadi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda mamlakatimizning moliyaviy siyosatining barqaror rivojlani-shi amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy siyosatiga bevosita bog'liq. Bu borada, davlat moliyaviy organlari eng ilg'or tajribalarni o'z amaliyotiga joriy etishi, rivojlangan mamlakatlarning moliya tuzilmalarini o'rganishi hamda moliyaviy siyosatni xalqaro jamiyat bilan tendensiyaviy bog'lanishiga qat'iy rioya etilishi zarurdir. Shundagina, aholining turmush darajasi yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganimizda, O'zbekiston davlatining moliyaviy jihatdan barqarorligi, amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlarga bevosita bog'liqdir. Biz yashayotgan XXI asrga kelib, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, moliya siyosatida ham, moliyaviy o'zgarishlarni, yangilanishlarni taqozo etmoqda. Bu moliyaviy yangilanishlarning tub maqsadi, aholi turmush sharoitini yaxshilashga davlat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan desak, mubolaga bo'lmaydi. Har bir fuqaro mamlakatda kechayotgan islohotlarni o'rganishi, moliyaviy o'zgarishlarga tayyor turishi hamda moliyaviy savodxonlik bilimlarini muntazam ravishda oshirib borishi, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ochiqligiga e'tibor berilsa, shubhasiz, o'zining samarali natijalarini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya: Darslik. / – T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. B. 31
2. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. Toshkent. TII Moliya instituti. - Toshkent: “Noshir”, 2012. B. 5.
3. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. Toshkent. TII Moliya instituti. - Toshkent: “Noshir”, 2012. 44. B.
4. Ваҳобов А., Қосимова Г. Давлат молиясини бошқариш. Ўқув қўлланма.-Т.: “Иқтисод-Молия”, 2008. 9 Б.
5. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. Toshkent. TII Moliya instituti. - Toshkent: “Noshir”, 2012. 8. B.
6. Ваҳобов А., Қосимова Г. Давлат молиясини бошқариш. Ўқув қўлланма.-Т.: “Иқтисод-Молия”, 2008. 13 б
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Moliya_siyosati



УДК: 32(575.1)

Yakifjan KADIROVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti v.b.dotsenti (PhD)
E-mail: xqodirova@bk.ru

TerDU professori, tarix fanlari doktori, T. Pardayev taqrizi asosida

АХОЛИНИ ИЖТИМОИЙ HIMOYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRILISHI: ISH BILAN TA'MINLASH VA TURMUSH SHAROITINI YAXSHILASH BILAN BOG'LIQ ISLOHOTLARNING NATIJALARI

Аннотация

Ushbu maqolada So'nggi yillarda kambag'allikni yengishga hissa qo'shadigan boshqa sohalarda ham salmoqli sa'y-harakatlar amalga oshirilgani yozilgan. Yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qishloq joylari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq joylarda infratuzilmani takomillashtirish, sog'liqni saqlash, kasb-hunar ta'limi va tarbiyasini yaxshilash hamda iqtisodiy migrasiya kirishi aytilgan. Bu sohalarda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar mamlakatimizning uzoq muddatli kambag'allikni qisqartirish dasturining muhim qismi hisoblanishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy himoya tizimi, qishloq xo'jaligi, kompleks yondashuv, qashshoqlik, oilani qo'llab-quvvatlash, muhtoj qatlamlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ: РЕЗУЛЬТАТЫ РЕФОРМ, СВЯЗАННЫХ С ЗАНЯТОСТЬЮ И УЛУЧШЕНИЕМ УСЛОВИЙ ЖИЗНИ

Аннотация

В последние годы значительные усилия были предприняты и в других областях, способствующих снижению уровня бедности. Были упомянуты создание новых рабочих мест и поддержка предпринимательства, развитие села и сельского хозяйства, улучшение инфраструктуры в сельской местности, улучшение здравоохранения, профессионального образования и обучения, внедрение экономической миграции. Было констатировано, что позитивные изменения, реализованные в этих сферах в последние годы, являются важной частью долгосрочной программы страны по сокращению бедности.

Ключевые слова: Система социальной защиты, сельское хозяйство, комплексный подход, бедность, поддержка семьи, малообеспеченные группы населения.

IMPROVING THE SYSTEM OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION: RESULTS OF REFORMS RELATED TO EMPLOYMENT AND IMPROVEMENT OF LIVING CONDITIONS

Annotation

In recent years, significant efforts have been made in other areas that contribute to poverty alleviation. Creation of new jobs and support of entrepreneurship, development of rural areas and agriculture, improvement of infrastructure in rural areas, improvement of health care, vocational education and training, and the introduction of economic migration were mentioned. It was stated that the positive changes implemented in these areas in recent years are an important part of the country's long-term poverty reduction program.

Key words: Social protection system, agriculture, integrated approach, poverty, family support, needy groups

Kirish. Ijtimoiy himoya tizimi bu – kambag'allik va tengsizlikni kamaytirish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar va dasturlar majmuasidan iborat davlat siyosatidir.

G'arb davlatlarida ijtimoiy himoyaning markazlashgan tizimi 20-asrning boshlarida Germaniya va Buyuk Britaniyada ijtimoiy ta'minot tizimlarining yaratilishi davrida, bir oz keyinroq esa AQShda – Buyuk depressiya davrida muvaffaqiyatga erisha boshladi. 100 yil oldin ijtimoiy himoya tizimlari faqatgina bir necha mamlakatda rasman mavjud bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ushbu tizim deyarli barcha davlatlarda amal qilmoqda. Mamlakatlar o'z imkoniyatlari, milliy sharoitlari va ustuvorliklariga asoslanib ijtimoiy himoya tizimlarini quradilar.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi nafaqat moddiy yordam berishga, balki aholining yordamga muhtoj qatlamlarini kambag'allikdan chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Rivojlangan mamlakatlarda 1990 yillardan boshlab nafaqa ko'rinishidagi ijtimoiy yordam oluvchilarni rasmiy tadbirkorlikka jalb qilish uchun majburiy talablar joriy qilingan. Bu amaliyot qo'llanilgan mamlakat-larda

(Koreya, AQSh, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya va boshqalar.) aholi bandligi oshgani kuzatilgan.

Asosiy qism. Turli tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, kambag'allikdagi inson farovonligini faqatgina daromadlarga asoslangan baholash o'rniga boshqa ko'p kriteriyali tizimlari bilan o'lchash kambag'allikka qarshi kurashishning samarasini yanada oshiradi. Kambag'allik bu faqatgina daromadlar emas, bu turli o'lchamli (*toza ichimlik suvi, sog'liqni saqlash, sanitariya holati, boshqa zarur xizmatlar*) hayot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Maqsadli ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimidagi bu o'zgarishlar qisman Avstriya, Belgiya, Avstraliya, Kanada, Chexiya, Daniya va boshqa mamlakatlarda 2000 yillarning o'rtalarida rasmiy kambag'allik darajasini kamaytirishga omil bo'lgan.

Turli mamlakatlar kambag'allik darajasini kamaytirish uchun turli modellarni qo'llashadi. Misol uchun, shved modeli ikki maqsadni ko'zda tutadi: to'liq bandlik va daromadlar tengsizligini kamaytirishni ta'minlash. Mazkur mamlakatida, ishsizlarni o'qitish va qayta tayyorlash, talab yuqori bo'lgan sohalarda ishlash qobiliyatini tiklashni ma'qul ko'rishadi [1].

Xitoyda qishloq xo'jaligini, shu jumladan, qishloq hududlarini rivojlantirish va yer islohotlariga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Chexiyada esa kambag'al aholini moddiy tomondan qo'llab-quvvatlash uchun asosiy nafaqadan tashqari mahsulotlar va pul ko'rinishidagi qo'shimcha ko'maklar beriladi.

AQShda kambag'allarga ko'rsatilayotgan yordam aholining 15 foizidan 20 foizigacha qismini qamrab oluvchi maxsus dasturlar orqali tarqatiladi. Eng ko'p tarqalgan yordam turlari bu oziq-ovqat talonlari, arzon uy-joy olish dasturlari, qariyalar uchun tibbiy va ijtimoiy yordam turlari, bola parvarishlash bo'yicha nafaqalar va boshqa turdagi qo'llab-quvvatlash turlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston sharoitida ham rivojlangan mamlakatlardak kambag'allikni qisqartirishga kompleks yondashuv eng maqbul yechimdir. Mazkur siyosat mehnatga layoqatli aholini imkon qadar ish bilan ta'minlash va bir vaqtning o'zida muhtoj odamlarni kambag'allik chegarasidan chiqarishga qaratilgan davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab quvvatlashga qaratilgan [2].

Shu bilan birga, qashshoqlikni zudlik bilan bartaraf etishning imkoni bo'lmagan sharoitda kam ta'minlanganlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning daromad olishi va inson kapitalini rivojlantirishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish nazarda tutilmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, oxirgi 2-3 yilda aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimida o'tgan yillar davomida to'plangan mavjud muammolarni sektorlar tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar asosida qo'l rejimida tezkor hal etish o'zining samarasini ko'rsatdi. Ammo tan olish lozimki, ko'p hollarda «inson omiliga» haddan tashqari bog'liqlik muammolarni yechishda boshqa muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy mamlakatlarda tajribasi va tadqiqot jarayonida aniqlangan kamchiliklar ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni tizimli asosda yo'lga qo'yish lozimligini ko'rsatmoqda. Ayrim yordam turlarini ajratishning aniq mezonlari bo'lishi, unga muvofiqlikni aniqlash mustaqil axborot manbalariga asoslanishi lozim. Yordam ajratish mezonlari va tartiblari, ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar aniq va butunlay shaffof bo'lishi lozim. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalarini qo'lda boshqarishdan aniq va ravshan integratsiyalashgan tizimga o'tkazish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi [3].

Xususan, o'tgan yilidan boshlab mamlakatimizda bu borada muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 apreldagi 308-son qaroriga muvofiq, «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi yo'lga qo'yilmoqda, bu oilalar ehtiyoji va talabgorlarning belgilangan mezonlarga muvofiqligi darajasini oshkora, real vaqtda baholashni ta'minlaydi.

Ehtiyoj darajasi oila a'zolarining daromadlari, mol-mulk, bank hisobvaraqlari, olingan kreditlar, turli idoralarning tegishli ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan avtomobillar haqidagi ma'lumotlarni hisobga olish yo'li bilan aniqlanadi. Ushbu hisob-kitoblarga asosan ijtimoiy xizmatlar, yordamga muhtoj aholi va oluvchilarning yagona ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Mazkur tizimni sinovdan o'tkazish uchun Sirdaryo viloyatida 2019 yilning 1 oktyabridan boshlab pilot loyiha sifatida sinab ko'rildi [4].

Ushbu tizim faoliyatini samarali amalga oshirish uchun aholiga ko'rsatilayotgan yordam to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlar «Ijtimoiy himoya yagona reyestriga» kiritib borilishi kerak. Ushbu vazifa xonadonlarni o'rganish jarayonida ham amalga oshiriladi. Mazkur ma'lumotlar asosida va ayrim oilalarning turmush darajasiga karantin cheklavlarining salbiy ta'sirini hisobga olgan holda, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishga mas'ul idoralar tomonidan joriy yilda moliyaviy yordam va ko'makka muhtojlar ro'yxati tuzildi.

Tahlil va natijalar. Ushbu ro'yxatlardan kam ta'minlanganlar; imkoniyati cheklangan fuqarolar; ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar; yolg'iz keksalar; doimiy ishsiz fuqarolar; karantin tufayli ishsiz qolgan fuqarolar; epidemiologik jihatdan nochor hududlardan qaytgan fuqarolar o'rin olishgan.

Jami mazkur ro'yxatlarga 1,7 milliondan ortiq a'zosi bo'lgan 400 mingdan ortiq oila kiritildi. Ushbu oilalarga bir martalik ko'mak berish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi davrida yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 30 iyuldagi PF-6038-son Farmoni bilan respublika byudjetidan 380 milliard so'm mablag' ajratildi. Moddiy ko'mak miqdori har bir oila a'zosi uchun 220 ming so'm miqdorida etib belgilandi.

Bu yo'nalishda keyingi muhim qadam joriy yilning 4 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarori bo'ldi. Qarorda joriy yilning 1 sentyabrdan boshlab ijtimoiy nafaqalarni tayinlash to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish va ularni tayinlash tartib-taomillari «Elektron hukumat» tizimining ajralmas qismi bo'lgan «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilib, joriy yil oxirigacha respublikaning barcha hududlarida amalga oshirilishi belgilangan [5].

Ushbu tizimni joriy etishning asosiy maqsadlari – aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etishning yagona tizimini yaratishdan iborat.

2021 yilning 1 yanvaridan boshlab, davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etishda davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlar fuqarolardan talab etilishiga yo'l qo'yilmaydi. «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilganlik to'g'risida ma'lumotnoma yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali taqdim etiladi va 12 oy davomida amal qiladi. FHDYO bo'limlari arxivlarida qog'ozda saqlanadigan hujjatlarning elektron ma'lumotlar bazalarini shakllantirish maqsadida 30 mlrd so'm mablag' ajratiladi [6].

Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirish O'zbekistonda kambag'allikni bartaraf etish jarayonida muhim vosita bo'ladigan aholining kambag'al va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga moddiy yordam ko'rsatishning zamonaviy va oshkora tizimini yaratishga xizmat qilishi lozim.

Xulosa va takliflar. mamlakatdagi kambag'allikni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lgan – ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish faqatgina kompleks yondoshuvlar orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

So'nggi yillarda kambag'allikni yengishga hissa qo'shadigan boshqa sohalar ham salmoqli sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Ularga yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qishloq joylari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq joylarda infratuzilmani takomillashtirish, sog'liqni saqlash, kasb-hunar ta'limi va tarbiyasini yaxshilash hamda iqtisodiy migratsiya kiradi. Bu sohalar oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar mamlakatimizning uzoq muddatli kambag'allikni qisqartirish dasturining muhim qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni. 2020 yil 29 oktyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-6097 – son 2020 yil 29 oktyabr.
4. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, <http://lex.uz/docs/3338162>.
5. Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida, O'zbekiston Respub77 "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal – (1) IV/2019 ISSN 2181-063X <http://oac.dsmi-qf.uz> likasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 fevraldagi 44-sonli qarorining 1-ilovasi
6. Hududiy sog'liqni saqlash muassasalarining tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 18 martdagi 48-sonli qarori
7. Қодирова, Х. Б. (2015). Миллий ўзликни англаш. formation a culture of independent thinking in the educational process, 86
8. Кадилова, Х. Б. (2023). Халқ психологиясида идентикликнинг намоён бўлиши. journal of innovations in scientific and educational research, 6(2), 203-208.
9. Кадилова Х. Б. Миллий идентикликни таназзулига мультимаданий таъсир муаммолари //Учёный XXI века. – С. 82 (Кадилова Х. В. Problems of multimadanic influence on the degradation of national identity //uchioniy XXI veka. – P. 82).
10. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.
11. Buvabaevna K. Y. Issues of Civil Literacy Development in the Education System //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 5477-5489.
12. Y Kadirova. Ensuring National Spiritual Security Under globalization//Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – Pp. 1373-1377.
13. Kadirova Y. Loving the country is faithful //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B4. – С. 420-423.
14. Кадилова, Х. Б. (2015). Особенности национальных семей. ФЭН-наука, (10), 11-12

G'ayrat MAXAMADIEV,
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: mgayrat@mail.ru

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent M.Alijonov taqrizi asosida

SPIRITUAL LIFE IN DABUSIA IN THE EARLY MIDDLE AGES

Annotation

In the early Middle Ages, there was the most flourishing period of spiritual life in the land of Sughd. Most of the population believed in Zoroastrian religion. Zoroastrianism also believed in animals as well as gods in the center of belief.

Key words: Dabusia, Sughd, Early Middle Ages, Altar, Ram, Goat, Dog, Zoomorph, Jizzakh, Byzantium, Bird, Dragon, Panjikent, Gemma.

ILK O'RTA ASRLARDA DABUSIYADA MA'NAVYI HAYOT

Anotatsiya

Ilk o'rta asrlarda Sug'd diyorida ma'naviy hayotning eng gullagan davri bulgan. Aholining asosiy qismi zardushtiylik diniga etiqod qilishgan. Etiqodning markazida zardushtiylik dinining xudolari bilan bir qatorda xayvonlarga ham etiqod qilishgan.

Kalit so'zlar: Dabusiya, Sug'd, Ilk o'rta asrlar, Qurbongoh, Quchqor, Yechki bolasi, It, Zoomorf, Jizzax, Vizantiya, Qush, Ajdarho, Panjikent, Gemma.

ДУХОВНАЯ ЖИЗНЬ В ДАБУСИИ В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Аннотация

В раннем средневековье был самый расцвет духовной жизни в Согдийской земле. Большая часть населения исповедовала зороастрийскую религию. Зороастризм также верил в животных, а также в богов в центре веры.

Ключевые слова: Дабусия, Согд, Раннее средневековье, Алтарь, Баран, Коза, Собака, Зооморф, Джизак, Византия, Птица, Дракон, Пенджикент, Гемма.

Kirish. Ilk o'rta asrlarda Sug'ddagi diniy hayot, ma'naviy madaniyat to'g'risida yozma manbalarida turlicha ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shuningdek, ilk o'rta asrlarda Sug'd aholisining diniy e'tiqodlari to'g'risida ma'lumotlar arxeologik manbalarda ham o'z aksini topgan. Aholi diniy marosimlarni asosan ochiq osmon ostida, ibodatxonalarda amalga oshirgan.

Ilk o'rta asrlarga oid diniy marosimlar, topinish va sig'inish amallari o'tkaziladigan jamoat uylarini ikki tipga ajratish mumkin:

1. Ibodat uyi, ya'ni turar joylarning bir xonasida kundalik diniy amallarni bajarishda foydalaniladigan uy.

2. Shahar yoki qishloqlar tashqarisida alohida qurilgan ibodatxonalar.

Qurbongoh. Dabusiya yodgorligining ark qismida № 8 qazishma natijasida uy ibodatxonsi qurbongohlari qayd etildi. Qazishmaning V qurilish davrining 5 xonasidan qurbongoh, VI qurilish davrining 4 xonasidan uy xo'jaliklarining uy ibodatxonalaridagi ilk o'rta asrlardagi yarim oval qurbongohi. Shuningdek, VIII qurilish davrining 2-xonaning pol yuzasida kurinishidan olov yoqish uchun to'rtburchak qurbongoh aniqlandi. Chet bo'ylab, u chetiga yotqizilgan loy g'ishtlarning juft qilib o'ralgan. Yon tomonining umumiy saqlanib qolgan balandligi 12 sm. Imoratning umumiy uzunligi 3 m, kengligi 1,3-1,4 m. Ichki bo'shliq uzunligi 2,6 m, kengligi 90-97 sm. Bundan tashqari, ichki makon go'yo ikki qismga bo'lingan. G'arbiy qismi (1,47 x 0,97 m) uzoq vaqt foydalanilgandan, bir necha joyga tamrlangan. G'arbiy devorga yaqinroqda dumaloq teshik joylashgan. Sharqiy qismi deyarli kvadrat (1,04x0,9 m). Ko'rinib turibdiki, u loy g'ishtlarning butun va bo'laklarini yotqizish orqali hosil bo'lgan. 60x55 sm va 45x40 sm o'lchamdagi g'ishtlar tashqi tomondan uning sharqiy chekka devori bo'ylab uchta dumaloq chuqurchalar aniqlangan. Ularning eng janubiy qismi diametri 38 sm, qolgan ikkitasi 25

va 30 sm va chuqurligi 20-30 sm. Bundan tashqari, ular yashil-kulrang bo'sh tuproq bilan to'ldirilgan. Ularda diniy marosimlar o'tkazilgan bo'lishi mumkin[1]. Shuningdek, qurbongohning shimoli-sharqida toshlar va ishlatilgan asboblarning joylashishi tasodifiy emas. Ehtimol, bu yerda tozalash marosimlari o'tkazilgan[2]. Umuman olganda, bu katta xonadan biron bir diniy marosimlar uchun foydalanilgan bo'lishi mumkin.

Xonada uzoq vaqt davomida olov yonganligini uning janubiy devori bo'ylab loy g'ishtli konstruksiyasida ko'rishimiz mumkin. Pol qismi 25-35 sm chuqurlikkacha qizg'ish tus olgan. Qiziq tomoni shundaki, devorda kvadratchalar shaklidagi (33-35 sm) tamirlangan xom g'ishtlar mavjud. Shuningdek, pol qismidagi bazi g'ishtlarda barmoq bilan qiya xoch, kamon va yarim yoy shaklida chizilgan belgilar mavjud (1-rasm).



Ma'lumki, xona devoriga taqab qurilgan shakli taqasimon bo'lgan otashgoh milodiy II-III asrlarda Afrasiyobda[3]. VII-VIII asrlarda esa Yuqori Zarafshon yodgorliklarida uchraydi[4]. Xonalar o'rtasida qurilgan shakli

taqasimon bo'lgan otashgohlar esa Varaxsha[5], Kofirqal'a[6] va Poykent[7] kabi yodgorliklarda VIII asrning ikkinchi yarmi IX asr boshlarida uchraydi.

Sug'dlarning ilk o'rta asrlarga oid diniy qarashlari, ularning ibodatxonalar va ularning me'moriy yechimi, bajarilgan diniy ta'limotlar haqida A.M. Beleniskiy, B.I. Marshak[8], R.X. Sulaymonov[9], V.G. Shkoda[10], A.E. Berdimurodov va M.X. Samiboev[11] kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

ZOOMORF VA ANTROPOMORF. Shu bilan birga, voha aholisining diniy tasavvurlarida jonivorlarga topinish udumlari terrakotalar, sopol va temir buyumlariga tushirilgan zoomorf tasvirli idishlardan ham o'z aksini topgan.

Zoomorf syujeti, sopol buyumlar bezaklarida katta o'rin tutadi. X-XI asrlar idishlarida uchraydi. Qushlar va baliqlar ko'pincha ifodalangani. Ikkala tasvir ham kulol va xaridorlarning alohida hamdlariga sazovor bo'lgani bejiz emas. Eron va O'rta Osiyoda baliq va parranda go'shtiga yaxshi belgi sifatida munosabat hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Odam tushida qushni kursa boylik yoki hurmatni anglatadi. Hatto qanotli baliqning tasviri ham mavjud, u ikkala xayrixoh ramzni birlashtiradi.

X asrda baliqning ramzi sifatida o'simlik elementlari bilan to'ldirilgan segment talqin qilinadi. Segmentning bir qismini qo'sh chiziq bilan belgilab, unga baliq ko'rinishi berildi. X asrning ikkinchi yarmida, baliqning bunday tasviriga parallel ravishda qanotlari bilan to'ldirilgan segment paydo bo'ldi. XI asr boshlarida chizma shu qadar o'zgarganki, tasvirdan faqat bitta bosh qolgan, avval ko'z bilan, keyin esa usiz. Sharq dekorativ san'atida qo'sh va baliq naqshlarining birinchi tarqalishini F.Etingauzen qayd etgan. Ko'pincha ularning tasvirlari Nishopur kulolchilik rasmida uchraydi. X asr qushlari tasvirlari qanot o'simlik elementlari bilan to'yingan va asta-sekin qanot va barg orasidagi narsaga aylanadi va bu hodisa O'rta Osiyo uchun ham, Vizantiyada ham keng tarqalgan[12].

Terakotadan yasalgan haykalcha. Terakotadan yasalgan zoomorfik haykalchani bo'lagi, ehtimol, bolalar o'yinchog'i bo'lishi mumkin. Katta ehtimol bilan ot tasvirlangan, faqat uzun bo'yinli va kalta old oyoqli tananing bir qismi saqlanib qolgan. Haykalcha bir bo'lak qizg'ish loydan yasalgan, parchasi zich, siniqda pushti, pardozlash o'rtacha, pishishi normal holatda. Haykalcha zich qizil angob bilan qoplangan. Saqlanib qolgan uzunligi 5 sm, omon qolgan umumiy balandligi 6,8 sm, oyoqlari - diametri - 1,4 sm balandligi - 2 sm. (2-rasm, 1).



Quchqor. Bir oyog'i bilan tanasi saqlanib qolgan. U bitta o'ralgan loydan yasalgan bo'lib, undan oyoqlari, boshi, bo'yin va kalta dumi hosil bo'lgan. Loyi qizg'ish ranga ega. Angob qilinmagan. Haykalcha bir oz qupol ishlangan. Quyruq

qisqa, uning yuqori qismi bir oz tepaga kutarilib, keyin pastga tushadi. Tana uzunligi 4 sm, saqlangan balandligi 2,8 sm. (2-rasm, 2)

Qadimgi Eron madaniy an'alarini o'zlashtirgan bir qator xalqlar orasida, masalan, sarmatlar (skiflar) orasida Farn timsoli sifatida qo'chqor, shuningdek, ba'zan g'azal yoki kiyik tasviri keng tarqalgan. Biror kishining kiyimidagi ushbu belgilarning tasviri ko'pincha uning qirol oilasiga tegishli ekanligini ko'rsatdi. Farn ramzi sifatida qo'chqorni keng tasvirlash Kushonlar podshohligi, So'g'd va Baqtriyada qabul qilingan[13]. Ustrushona hududidagi yodgorliklarda ham burama shoxli qo'chqor haykalchalari, qo'y kallasi tasviri tushirilgan qozon tagliklari ko'p o'rganilgan. Xususan, Jizzax shahridagi Pardaquletpa va Komilbobotepa yodgorliklarini o'rganish mobaynida burama shoxli qo'chqor haykalchalari, qo'y kallasi ramziy shakli tushirilgan 10 ga yaqin qozon tagliklari o'rganilgan. Bu topilmalar mohiyatini ilmiy tahlil qilib o'rgangan M.H. Pardaev ularni, "ko'chmanchi chorvador xalqlar bilan aloqadorligini" ta'kidlaydi[14]. Muallif mazkur omilga asoslanib, qo'y tasvirini "Avesto"da qayd etilgan va qadimgi eron aholisi o'rtasida keng tarqalgan "xvarn" (farn) topinchi bilan bog'laydi[15]. M. Pardaevning ta'kidlashicha, miloddan avvalgi 1 ming yillikning so'ngi choragidan Sirdaryoning o'rta oqimi havzasida "Qovunchi madaniyati" shakllanadi va qo'shni dehqonchilik vohalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Millodiy birinchi ming yillikning birinchi yarmida (arablar bosqiniga) O'rta Osiyoda hukm surgan turli turkiy sulolalar (yuechjilar, xunlar, efalit va turk hoqonligi) davrida bu keng qamrovli ta'sir ichida qo'y topinchi bilan bog'liq qarashlar ham keng yoyilgan. Qo'y timsoli bilan bog'liq topinchni faqat boshqa regionlar ma'naviy madaniyatidan emas, balki, totemizm bilan bog'liq turkiy xalqlar asotir (mif)laridan ham izlamoq kerak[15]. Xitoy tarixiy solnomalarida aytilishicha, ayrim O'rta Osiyo hukmronlarining taxtlari tilla quy shaklida ishlangan[16]. "Shohnoma"da Kaykovus Rustamga quy shaklida yasalgan "feruza taxt" hadya etadi. Panjikent ibodatxonasi devor tasvirlaridan birida esa "orqaga buralgan baquvvat shoxli qanotli quy tanalari taxtni ikki tomonidan suyab turibdi. Ularning rangi tilla yoki bronzadan ishlanganidan dalolat beradi"[17].

Echki bolasi (uloqcha) – Quvur shohlilar oilasiga mansub, kavush qaytaruvchi, juft tuyoqli sut emizuvchi hayvon. Haykalchani maksimal balandligi 4,2 sm, uzunligi 4 sm. Haykalchada quyish jarayonida shakllangan boshqa kamchiliklar ham bor. Haykalcha ikki qismdan iborat. O'rta qismda u shunchalik nozikki, tananing to'liq yo'qligi haqida taassurot qoldiradi. Og'iz tor, tekislangan. Quloqlari katta va tashqariga chiqadi. Dum qismi 0,4 sm. (2-rasm, 3).

It–Uy–ruzg'orni quriqlash, ov qilish va sh.k maqsadlar uchun saqlanadigan to'rt oyoqli sut emizuvchi hayvon. Turkiy xalqlarda it – vofodorlik, sadoqat timsoli hisoblanadi. Haykalchani uzunligi 5,6 sm. Tanasi kalta, to'mtoq, og'zi ochiq, ko'zi yumaloq. Oldin va orqa oyoqlari o'rtasida teshiklar bor. Chap orqa oyog'i gorizontial yo'nalishda ketgan. Haykalchani ko'krak va chap oyog'ida bo'rtib chiqqan joyi bor. O'rta qismda haykalcha 2 qismga bo'lingan (2-rasm, 4).

Panja: loyi yaxshi pishmagan kichik haykalchani panja qismi (2-rasm, 6). Rangi och kulrang tusga ega. Bu yirtqich hayvonning (sher) yoki hayoliy jonzotning (ajdaho) tirmoqli panjasi bo'lishi mumkin. Kurinishidan barmoqlari biroz egilgan, hujimga yoki oldinga harakatlanmoqchiday bo'lib turganga o'xshaydi. Uchburchak tirmoqlari bilan tugaydigan beshta barmoq saqlanib qolgan. Parchaniy teskari tomoni bo'rtgan va silliqdir. O'lchamlari: uzunligi - 5,8 sm, kengligi - 5,6 sm.

Fantastik yirtqich hayvonlar – boshi echki yoki tog' qo'yi, tanasi ilonnik bo'lgan zamorflar qayd etilgan bo'lib. Ularning uzunligi: dumning uchidan shoxlari uchlarigacha

bo'lgan uzunligi 14,6-14,7 sm, diametri 0,9-1,2 sm bo'lgan o'ralgan tayoqdan yasalgan. Haykalchalarning boshga qarama-qarshi tomondagi uchlari yassilangan, kengligi 1,1 va 1,5 sm. Haykalchalarning birida boshning old qismi uchburchak shaklga ega, uning tepasida uzun tik turgan quloqlar va shoxlar (bitta) joylashgan. Quloq va bitta shoxi singan. Qisman saqlanib qolgan ikkita haykalchani baland shoxlari orqaga egilgan. Quloqlar turli shakllarga ega. (2-rasm, 7-11).

Tamg'ali g'ishtdani o'rtasida doira bo'lib, diametri 11 sm, uning ichida ikkinchi doira mavjud. Ikkala doira orasida nuqtala joylashgan. Ikkinchi doira ichida qush tasvirlangan. (2-rasm, 12). A.Yu.Yakubovskiy bezakli – tamg'alar tushirilgan g'ishtlarni “ilk islom davriga ehtimol, Somoniylar davriga ham tegishlidir” deb hisoblaydi. Dabusiya va Rabinjandan bir qancha g'ishtlarni topishgan[18]. L. I. Rempel[19] ularni VIII-X asrlarda foydalanilgan desa, G. A. Pugachenkova[20] Miyonqaldan topilgan shunga o'xshash g'ishtlar bilan bog'liq holda, ularni 6-8-asrlarga tegishli deb hisoblashni taklif qildi.

Qush tasviri tushirilgan tovoqda butun bir idaishning markaziy qismini egallab olganligini kurishimiz mumkin. Idishning osti dastlab oq rang bilan bo'yalgan, sungra malla rang bilan qush chizilgan. Uning tanasi, bosh qismi, qisman oyoqlari va dum qismi saqlanib qolgan. Tovoqning butu bir qismi kuk nuqtalar (xol) bilan bezatilgan. Qushning kuzi va qanoti och malla nuqtadan foydalanilgan. Bosh qismi oq rangda. (2,-rasm, 5).

Gemma (lot. gemma - “ko'z”, uzum tokchasidagi ko'rtak) [21]. Antik davrda, juda o'ziga xos tarzda, o'simlik ko'rtaklari bilan birgalikda, “marvaridlar” naqshli to'qimalarga ega bo'lgan rangli toshlarning nomi edi. Vaqt o'tishi bilan, faqat yorqinligi, qattiqligi, yorqinligi va rang

boyligi bilan ajralib turadiganlar. Bunday toshlar bezak sifatida ishlatilgan. Demak, lotincha (keyinchalik o'rta yunoncha) “gemmeus” so'zi - yorqin, yorqin, bezatilgan. Yarim qimmatbaho toshlarning o'ziga xos qattiqligi (rus tilida so'zlashuvchi an'analarida bezakli) toshlardan o'ymakorlik uchun foydalanish g'oyasiga to'rtki bo'ldi. Dastlab, chuqur tasvirlar bilan o'yilgan toshlar faqat muhr uzuklari uchun ishlatilgan[22,23]. Dabusiya yodgorligidan qayd etilgan qush tasviri tushirilgan gemma (muhr) qimmatboho toshga noziklik bilan uyib ishlangan. Tosh aslida doira shaklida bo'lgan, uni bir tomonini tekislab qayda ishlov berishgan. Natijada ushbu hlatga kelgan (2-rasm, 14).

So'g'd kulollariga chizilgan rasmlarda antropomorfik tasvirlar kam uchraydi. Ehtimol, hali ham unutilmagan mahalliy devor rasmlari va import qilingan jilolar tasiri ostida Dabusiya katta kosasining butun markaziy qismini to'ldirib o'tirgan odam bilan sahna paydo bo'ldi. Qizil-jigarrang ohangda yasalgan ayol tanasi bo'lgan fantastik jonzot Afrasiyob yodgorligida xam uchraydi. Vaqti-vaqti bilan 12-asr loess-gil kulolchilik rasmlarida antropomorfik motiv paydo bo'ladi[24]. (2-rasm, 13).

Idishlarga tushirilgan hayvonlar tasvirlari suv va sug'oriladigan yerlar homiysi, hosildorlik kulti hisoblanib, kulolchilik buyumlari ichidagi mahsulotlarni yomon ko'zlardan saqlovchi xususiyatlarga ham ega bo'lgan bo'lishi mumkin[25].

Xullas, ilk o'rta asrlarda Samarqand Sug'di, jumladan, Dabusiya shahrida hamm ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuksalish ro'y bergan. Ammo, arablarning bosqini tarkibida bo'lgan shahar va qishloqlar, diniy ibodatxonalar vayron bo'lgan. Ularning urnini masjidlar egallagan. Dabusiya shahrida o'zluksiz hayot davom etib kelganligini arxeologik topilmalar ham o'z isbotini kursatmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Бердимуратов А.Э., Токао Уно. Кала-и Дабусия. Киото.Япония. 2013.
2. Бу борада зардуштийлик маросимлари билан кизикарли параллел, каранг: Мейтарчян, Погребальний обряд зороастрийцев. М., Институт востоковедения РАН, 1999.
3. Кабанов С.К. Изучение стратиграфии городища Афрасиаб // СА. № 1. – М., 1969.
4. Якубов Ю. Раннесредневековые сельские поселения горного Согда. – Душанбе, 1988. –С. 53; Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент, 2000.
5. Шишкин В.А. Варахша. – М., 1963.
6. Сандибоев А. Н. Маймурғ илк ўрта асрларда. Монография / 2021.
7. Мухамеджанов А.Р., Адылов Ш.Т., Мирзаахмедов Д.К., Семенов Г.Л. Городище Пайкенд. К проблеме изучения средневекового города Средней Азии. – Ташкент, 1988.
8. Беленицкий А.М., Маршак Б.И. Черта мировоззрения согдийцев в VII–VIII вв. в искусстве Пенджикента // История и культура народов Средней Азии. – М., 1976.
9. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Ташкент, 2000. – С. 226–246.
10. Шкода В.Г. Пенджикентские храмы и проблемы религии Согда (V–VIII века). – Санкт–Петербург, 2009.
11. Бердимуратов А.Э., Самибаев М.К. Храм Джартепа. – Ташкент, 1999.
12. Шишкина Г. В. Глазурованная керамика Согда (Вторая половина VI -начало XI в.) издательство “Фан” Узбекской ССР -Ташкент-1979.
13. Шауб И. Ю. Из истории языческих верований в Северном Причерноморье: культ фарна у скифов // Вестник Православного Свято-Тихоновского Богословского Института, 2004.
14. Пардаев М.Х. Қўй ва бўри рухига сифинишининг ўзаро боғлиқлиги ҳақида // ЎИФ (ОНУ). – Тошкент. 1995.
15. Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар сосида). Тошкент, 2016. (Pardaev M.Kh., Gofurov Yu.I. Early medieval rural sites of Ustrushana (according to written and archaeological sources). Tashkent, 2016.
16. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2. - М., 1950.
17. Беленицкий А. М. Зооморфные троны в изобразительном искусстве Средней Азии // ИООАН Вып. 28, 1962.
18. Якубовски й А. Ю. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину//Труды отдела Востока Гос. Эрмитажа. Т. 2.
19. Рempel Л. И. Архитектурный орнамент Узбекистана//История развития и теория построения. Ташкент, 1961.
20. Пугаченкова Г. А. К датировке кирпичей с орнаментальными штампами из Мианкаля//Успехи среднеазиатской археологии. Вып. 4. Л., 1979. С. 45.
21. Дворецкий И. Х. Латинско-русский словарь. — М.: Русский язык, 1976.
22. Гемма // Словарь античности = Lexikon der Antike / сост. Й. Ирмшер, Р. Йоне ; пер. с нем. В. И. Горбушин, Л. И. Грацианская, И. И. Ковалёва, О. Л. Левинская ; редкол.: В. И. Кузицин (отв. ред.), С. С. Аверинцев, Т. В. Васильева, М. Л. Гаспаров и др. — М.: Прогресс, 1989. — ISBN 5-01-001588-9.

23. Власов В. Г.. Геммы // Власов В. Г. Новый энциклопедический словарь изобразительного искусства. В 10 т. — СПб.: Азбука-Классика. — Т. III, 2005.
24. Шишкина Г. В. Глазуванная керамика Согда (Вторая Половина VI -Начало XI в.) Ташкент-1979.С. 60-61.
25. Сандибоев А.Н. Кофиркальанинг илк ўрта асрларга оид зооморф тасвирли кулолчилик идишлари. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон археологияси: ютуқлар ва истикболлар. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 25 йиллигига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. – Самарқанд, 2016.



UDK: 902.03(575.1)

Yakubdjani MUXAMEDOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi, t.f.f.d.(PhD)
E-mail: mukhamedov-2017@mail.ru

Urganch davlat universiteti dotsenti, t.f.d O‘. Abdullayev taqrizi asosida

COVERAGE OF THE MANAGEMENT SYSTEM OF THE CHACH OASIS IN THE EARLY MIDDLE AGES IN THE RESEARCH OF FOREIGN SCIENTISTS

Annotation

This article is devoted to the study of scientific problems that took place in the research of foreign scientists on the history of management of the Chach oasis in the early Middle Ages, and is revealed based on the analysis of data from archaeological and written sources.

When researching the information presented in the article, the opinions expressed by foreign experts conducting scientific research on this issue were studied, analyzed and highlighted.

Key words: Management, Sogd, Chach, Khakan, Turk, Ephthalite, Chje she, Tegin, Kang, Yabgu, ethnic group, Tudun, Tutun, trade, exchange.

ОСВЕЩЕНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧАЧСКОГО ОАЗИСА В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ЗАРУБЕЖНЫХ УЧЕНЫХ

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию научных проблем, имевших место в исследованиях зарубежных учёных по истории управления Чачским оазисом в раннем средневековье, и раскрывается на основе анализа данных археологических и письменных источников.

При исследовании информации, представленной в статье, были изучены, проанализированы и освещены мнения, высказанные зарубежными специалистами, проводящими научные исследования по данному вопросу.

Ключевые слова: Управление, Согд, Чач, Хакан, Тюрк, Эфталит, Чже ше, Тегин, Канг, Ябгу, этнос, Тудун, Тутун, торговля, обмен.

ILK O‘RTA ASRLARDA CHOCH VOHASI BOSHQARUV TIZIMINI XORIJLIK OLIMLARINING TADQIQOTLARIDA YORITILISHI

Аннотация

Ushbu maqolada Choch vohasi boshqaruv tizimini yoritishda xorijlik olimlarning tadqiqotlaridan o‘rin olgan xoqonlik tomonidan olib borilgan boshqaruvdagi isloxtolarning mazmun mohiyatini ilmiy masalalarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu borada arxeologik va yozma manbalardagi ma‘lumotlar tahlili asosida ochib berilgan.

Maqolada keltirilgan ma‘lumotlarni tadqiq qilishda mazkur masala bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan xorijlik mutaxassislar tomonidan bildirib o‘tilgan fikr mulohazalar o‘rganib chiqilib tahlil qilinib yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv, Sug‘d, Choch, Xoqon, turk, eftalit, Chje she, Tegin, Qang‘, Yabg‘u, etnik gurux, tudun, tutun, savdo, ayiriboshlash.

Kirish. Ma‘lumki, o‘tmishda biron bir sulola tarix saxnasiga kelar ekan tarkibida bo‘lgan hududlarda o‘z boshqaruv tizimini olib borgan. G‘arbiy Turk xoqonligining ma‘muriy boshqaruv tizimini o‘rganish tadqiqot ishlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ushbu masala hozirgi kunga qadar bu o‘z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. G‘arbiy xoqonlikning boshqaruv tartibi va tarkibidagi yerlardagi isloxtolari bo‘yicha eng muxim ma‘lumotlar ayniqsa Choch vohasining boshqaruv borasidagi masalalar xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlaridan o‘rin olgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur masalani yoritishda xorijlik olimlardan, fransuz sharqshunoslari E. Shavann, F. Grene, E. de la Vessier, amerikalik J.K. Skeff, nemis tadqiqotchisi Z.Shtark, venger sharqshunosi K.I.Bekvis, turkiyalik sharqshunos va tarixchilar Z.V.To‘g‘on, E.Esin va E.Ekremlarning tadqiqotlari ilmiy ishning asosiy manbasini tashkil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni yoritishda tarix fanida tan olingan tarixiylik, obyektivlik tamoyillari, tizimli qiyosiy tahlil, muammoviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan Choch vohasining tarixini, uning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini, boshqaruv shakli va vohadagi hukmron sulolalarning kelib chiqishi masalasi bir qator xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular orasida asosan fransuz sharqshunoslari E. Shavann, F. Grene, E. de la Vessier, amerikalik J.K. Skeff, nemis tadqiqotchisi Z.Shtark, venger sharqshunosi K.I.Bekvis, turkiyalik sharqshunos va tarixchilar Z.V.To‘g‘on, E.Esin va E.Ekremlarning tadqiqotlari alohida ajralib turadi[1]. Ular asosan yozma manbalarga, xususan, xitoy yilnomalaridagi ma‘lumotlarga tayangan holda ilmiy izlanishlar olib borishgan. Shuningdek, voha tarixini asosan Turk xoqonligi davri tarixi doirasida yoritib berishda hozirgi kunga qadar aniqlanmasdan kelayotgan ko‘pgina muammoli masalalariga oydinlik kiritishgan.

Jumladan, ular orasida birinchilardan bo‘lib Markaziy Osiyo tarixini xitoy manbalari asosida tadqiq qilgan E.Shavann XX asr boshlarida “G‘arbiy turklar tarixiga oida hujjatlar” nomli monografiyasida Choch vohasining ilk o‘rta asrlardagi siyosiy tarixi aks etgan xitoycha ma‘lumotlarni tarjima qilish mobaynida arab va fors tilidagi ma‘lumotlarni

ham o'zaro taqqoslab keltirgan va xoqonlik tomonidan Chochga noib sifatida yuborilgan "tudun" unvonli amaldorlar faoliyatiga to'xtalib o'tib o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tgan [2].

E.Shavan, F.Grene va E. de la Vessierlar nisbatan yaqin yillarda o'z tadqiqotlarini amalga oshirishgan bo'lib, ular Mug' tog'i sug'diy hujjatlarini tahlil qilish mobaynida 720- yillarda Sug'd hukmdori Devashtich tomonidan Chochga yuborilgan elchi Fatufarnning o'z xo'jayiniga yozgan xati – A-14 raqamli sug'diy hujjatni fransuz tiliga tarjima qilib, o'sha yillarda vohada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga e'tibor qaratishgan[3]. Mazkur tadqiqotchilar ushbu hujjatda uchraydigan "Choch hukmdori", "Choch tuduni", "xun" iboralarini tahlil qilib, ulardan so'nggi ikkitasini Turk xoqonligi bilan bog'lashgan. Amerikalik tadqiqotchi J.K. Skeff esa asosan xitoy yilnomalaridagi ma'lumotlar asosida Turk xoqonligining tarkibida bo'lgan hududlarning boshqaruv tizimida olib borgan islohotlariga to'xtalib, bu masalani ilmiy tahlil qili, Choch hukmdorligi misolida yoritishga harakat qilgan. Uning fikricha, xoqonlikning bu erdagi boshqaruvi ancha izchil amlga oshirilgan bo'lib, xoqonlar tomonidan noib sifatida yuborilgan maxsus vakil – tudunlar kelib chiqishiga ko'ra turkiy bo'lganligini ta'kidlagan[4].

Germaniyalik tarixchi Z. Shtark turli tillardagi manbalar va arxeologik materiallar asosida qadimgi turklar tarixini yoritib, Choch vohasida kelib chiqishi Ashina honadoniga mansub bo'lgan hukmdorlar, shuningdek, tudunlar faoliyatiga ham qisqacha to'xtalib o'tgan. Xulosasiga ko'ra, Turk xoqonligi Choch, Farg'ona va To'xoristonni, shuningdek, ehtimol, Buxoroni bevosita o'z boshqaruvchi xonadani vakillarini tayinlash orqali boshqargan[5].

Xorijlik ayrim tadqiqotchilar, xususan, J.K. Skeff, E.de la Vessier, F. Grene, Z. Shtarklar Choch vohasining siyosiy boshqaruvi bo'yicha ham muhim yangi fikrlar bildirib o'tishlariga qaramasdan, vohadagi hukmron sulolalar bilan bog'liq ayrim biryozlamali yondashuvlarda bo'lganliklari ko'zga tashlanadi. Xususan, Z. Shtark vassal hukmdorliklar boshqaruvida turkiy unvonlarning uchrashini muayyan bir tizim bilan emas, shunchaki tasodif yoki davrga hos holat sifatida tilga olib o'tilsa[6], J. K. Skeff esa Choch tudunlari sulolasi vakillarining unvoni turkiy, ismlari esa g'ayriturkiy ekanligini ta'kidlashgan[7]. Biroq har ikkala tadqiqotchining fikri o'sha davr voqeliklarini chuqur o'rganilmasdan va atroflicha ilmiy asosda tahlil qilimasdan turli tillardagi ma'lumotlarni o'zaro solishtirmasdan bildirilgani, numizmatik materiallarga jiddiy e'tibor berilmaganligi, hamda bir qator tadqiqotchilarimiz tomonidan ta'kidlab o'tildi va ular tomonidan ilgari surilgan "davir modasi", "g'ayriturkiy ismlar" kabi masalalarga aniqlik kiritildi. Xususan, G'. Boboyorovning ta'kidlashicha, Turk xoqonligi davrida turkiy unvonlar xoqonlik boshqaruvida qanday qo'llanilgan bo'lsa, uning vassalarida ham shunga amal qilgan holda ishlatilgan, agar ular yozganidek davrga xos tizim sifatida baholanganida, xohlagan hukmdorlik xoqonlikka xos bo'lgan unvonlarni ixtiyoriy tartibda, ya'ni ularning darajasiga qaramasdan o'ziga maqul kelganini tanlab olib, palapartish holatda qo'llana boshlagan bo'lur edi. Shu bilan birga ushbu tadqiqotchi "g'ayriturkiy ismlar" masalasiga to'xtalib, xitoy yilnomalarida uchraydigan 3 ta nafar tudunning ismlari ham sof turkcha ekanligini turli manbalar bilan asoslab berishga muvafiq bo'lgan[8].

Yuqorida aytib o'tganimizdek, E.V. Shavann Choch vohasining siyosiy tarixiga oid "Bey shi", "Suy shu" va "Tan shu" kabi ilk o'rta asrlarga oid xitoy yilnomalaridagi ma'lumotni fransuzchaga tarjima qilishi mobaynida arab manbalaridagi ma'lumotlarga ham murojaat qilgan g'arblik tadqiqotchilarning dastlabkilaridan biri sanaladi. Shunga qaramay, mazkur yilnomalardan foydalangan va E.V.

Shavanning tadqiqotidan xabardor bo'lgan F. Grene va E. de la Vessierlar, ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yanlar. Jumladan, ular A-14 raqamli sug'diy hujjatni tahlil qilish mobaynida E. Shavann tomonidan o'g'irilgan xitoycha ma'lumotlardagi Shi-guo Fu-Wang – "Choch hukmdori muovini tudun" iborasini to'liq olgan holda, Shi-guo Wang T'ele, ya'ni "Choch hukmdori Tegin" jumlasidagi[9] "tegin" so'zini tushirib qoldirib, Shi-guo Wang "Choch hukmdori" tarzida beradiki[10], bu esa o'z navbatida ayrim tarixiy voqeliklar borasida muayyan anglashmovchiliklarning kelib chiqishiga olib keldi. Ya'ni xitoy yilnomalarida aynan Choch hukmdori Tegin ekanligi ko'rsatilib turishiga qaramay mazkur tadqiqotchilarning bu unvoni tushirib qoldirishi natijasida qaysi unvon egalari Chochda bosh sulola, qaysilari esa aksinchaligi masalasida tushunmovchilik yuzaga keldi.

Ushbu masalaga o'z vaqtida e'tibor qaratgan G'. Boboyorov F. Grene va E. de la Vessierlar xatoga yo'l qo'yishgani, aslida Chochda bosh sulola – Teginlar, ikkinchi darajali sulola esa Tudunlar bo'lganini nafaqat xitoy manbalaridagi ma'lumotlar (Shi-guo Wang T'ele "Choch hukmdori Tegin" va Shi-guo Fu-Wang – "Choch hukmdori muovini tudun") va Turk xoqonligi unvonlar ierarxiyasida "tegin" (shahzoda), "tudun" (noib) maqomlari tasdiqlashini talqin qilgan[11].

Bu davr tibet manbalari bo'yicha yirik mutaxassis K.I. Bekvis Choch vohasi tarixiga doir nisbatan kam o'rganilgan mavzularni yoritgan. Tadqiqotchining yozishicha, xitoy yilnomalarida uchraydigan Choch muovini yordamchi hukmdorining ismi turkiy bo'lib, uning asli Inal Tudun Kulug shaklida tiklanadi[12]. Uning fikricha, xitoy yilnomalarida Chabishi shaklida uchraydigan Choch hukmdorining ismi Chabish shaklida tiklanadi va u aslida ism bo'lmay, turkiy chabish (chovush) unvoni bilan aloqadordir. Tadqiqotchiga ko'ra, ushbu hukmdor Chochning ikkinchi darajali hukmdori Inal (Inay) Tudun Kulugning o'g'li bo'lib, Turgash xoqonligiga aloqador hukmdorlikning boshqaruvchisi sifatida turgash xoqonlarining Xitoyga qarshi ittifoqchisi ham bo'lgan[13]. Biroq uning 751 yildagi ittifoqchilari bo'lmish Turgash xoqoni va tibetlik lashkarboshilar bilan birgalikda xitoy sarkardasi Gao Syanchji tomonidan qo'lga olinib, poytaxt Chan'anga olib ketiladi va erda imperator farmoni bilan poytaxtdagi "KayYuan darvozasi" oldida qatl etiladi. Shundan keyin marhum Choch hukmdori Chabishning o'g'li xitoyliklarga qarshi Samarqanddagi Arab garnizoni boshlig'i Ziyod b. Solih alXuzaynaga yordam so'rab murojaat qiladi va natijada 751 yilda bo'lib o'tgan mashhur Talas jangi yuz beradi[14]. Aftidan g'olib chiqqan arab qo'shinlari ushbu jangda o'zlariga yordam bergan voha hukmdorliklari qatorida Chochni ham o'z qaramog'iga olib, uni tobe hukmdorlikka aylantiradi.

Xorijlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari Choch vohasining ilk o'rta asrlardagi siyosiy-ma'muriy boshqaruvi bo'yicha ko'plab muammoli masalalarga aniqlik kiritganliklarini guvohi bo'lish mumkin. Ular yozma manbalar va arxeologik materiallar asosida vohada bir mahalliy sulolalar hukm surganligi, Choch hukmdorlarining boshqaruv yillari xronologiyasi, sulolalarning etnik mansubligi, boshqaruvda qo'llanilgan unvon va epitetlar, mahalliy sulolalar tomonidan zarb qilingan tanga-pullar, tangalarda o'rin olgan ramziy belgilar – tamg'alar, umuman olganda vohada mavjud bo'lgan boshqaruv an'analari bo'yicha birmuncha umumiy to'xtamlarga kelishayotganligi ko'zga tashlanadi.

Xulosa. Ilk o'rta asrlarda Choch vohasi ijtimoiy va siyosiy tarixi bo'yicha xorij tadqiqotchilaridan ayrimlarining ba'zi ishlari bilan qisqacha tanishib chiqishimiz natijasida quyidagicha xulosaga kelindi:

- xorijlik tadqiqotchilar, xususan, ular orasida fransuz, nemis, venger, amerikalik kabi tadqiqotchilar islomdan oldingi Choch vohasi tarixini yoritishga anchagina hissa qo'shganlar;

- ularning tadqiqotlari asosan turli tillardagi yozma manbalar va qisman arxeologik materiallar asosida olib borilgan bo'lib, voha tarixining mavhum jihatlarini anchamuncha yoritadigan mohiyatdadir;

- xorij tadqiqotchilarining ishlarida ilmiy yutuq va yangiliklar mavjud, fikr mulohazalari anchagina isbotli bo'lishi bilan birga ular tomonidan ayrim biryoqlamali fikrlar ham bildirilganligi ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903; Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology, 8. – Kamakura 2002. – P. 155–196; Skaff K. J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // TURKS. – Ankara, 2002. – Vol.2. – P. 364–372; Stark S. Die Alttürkenzeit in Mittel- und Zentralasien. Archäologische und historische Studien. – Wiesbaden, 2008.
2. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux ... P. 140-142.
3. Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent ... P. 169-170.
4. Skaff K. J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries ... P. 370.
5. Stark S. Nomaden und Seßhafte in Mittelasiens- und Zentralasien // Grenzüberschreitungen. Formen des Kontakts zwischen Orient und Okzident im Altertum. – Stuttgart, 2002. – S.389; Stark S. Die Alttürkenzeit in Mittel- und Zentralasien. Archäologische und historische Studien ... S. 225.
6. Stark S. Nomaden und Seßhafte in Mittelasiens- und Zentralasien ... S. 389.
7. Skaff K.J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // The Turks, 2. – Ankara, 2002. – P. 364-372.
8. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв.). – Т.: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои, 2007. – С. 58–60, 100; Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). – Т.: Yangi nashr, 2010. – 36, 49–51, 144.
9. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903. – P. 142, n. 1.
10. Stark S. Nomaden und Seßhafte in Mittelasiens- und Zentralasien ... S. 374-375, k. 68.
11. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв.) ... С. 46–47, 57–59; Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар ... Б. 49–51.
12. Beckwith I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans, Turks, Arabs, and Chinese during the early middle Ages. – New Jersey: Princeton University Press, 1993. – P. 124.
13. Beckwith I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans ... 137-138.
14. Beckwith I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans ... 139.



UDK:947.08:631.587 (021)

Asror RAXIMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sardormuhammadali94@gmail.com

O'zMu professori A.Yermetov taqrizi asosida

QARSHI CHO'LI TABIIY-GEOGRAFIYASINING SOVET DAVRIDA O'RGANILISH TARIXI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qarshi cho'li tabiiy-geografiyasining sovet davrida o'rganilish tarixi tadqiq etilgan. Cho'lining iqlim sharoiti, suv resurslari, tuproqlari hamda bahsli bo'lgan chegarasi haqida sovet olimlarning ilmiy tavsifi bayon etilgan. Shuningdek, Amudaryo suv resurslaridan noto'g'ri foydalanishning oqibatlari, ekspertlarning Qarshi cho'lga Jayhundan suv chiqarilishi to'g'risidagi xulosalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Cho'l, hudud, gektar, iqlim, tuproq, daryo, harorat.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ КАРШИНСКОЙ ПУСТЫНИ В СОВЕТСКОЕ ВРЕМЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается история изучения естественной географии пустыни Карши в советский период. Научное описание климатических условий пустыни, водных ресурсов, почвы и спорной границы дано советскими учеными. Также будут обсуждены последствия нецелевого использования водных ресурсов Амударьи, выводы экспертов о сбросе воды из Джейхуна в пустыню Карши.

Ключевые слова: Пустыня, площадь, гектары, климат, почва, река, температура, история.

HISTORY OF THE STUDY OF THE NATURAL-GEOGRAPHICAL DESERT OF KARSHIN IN SOVIET TIMES

Annotation

This article examines the history of studying the natural geography of the Karshi desert in the Soviet period. The scientific description of the climatic conditions of the desert, water resources, soil and disputed border is given by Soviet scientists. They will also discuss the consequences of the misuse of the water resources of the Amu Darya, the conclusions of experts on the discharge of water from Ceyhun into the Karshi Desert.

Key words: Desert, area, acres, climate, soil, river, temperature, history.

Kirish. Tarixdan ma'lumki, har qanday hududning taraqqiyotiga uning geografik joylashuvi va iqlimi ta'sir qiluvchi asosiy omillardan hisoblangan. Qarshi cho'li o'zlashtirilishi tarixini va uning tabiiy-geografiyasini bilish, kelajakda mazkur hududda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni oldindan ko'rish yoki ularni bartaraf etish uchun muhim strategiyalarni ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida, tadqiqot metodologiyasi sifatida birinchi navbatda tarixiylik, xolislik, uzviylik, ketma-ketlik va qiyosiy taqqoslash kabi metodologiyadan foydalanilgan holda, Qarshi cho'li tabiiy-geografiyasining o'rganilish tarixiga e'tibor qaratilgan.

Ilmiy maqolani tayyorlashda, asosan, G.N. Vinogradov, N.N. Xodjibayev, K.M. Aripov, V.U. Magdiyev asarlaridan hamda O'zbekiston Milliy arxivining R-2743-jamg'armasida saqlanayotgan, ilmiy muomalaga kiritilmagan manba ma'lumotlaridan ham foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari. Qarshi cho'li geografik joylashuvi jihatdan O'rta Osiyoning yirik cho'llari – Qizilqum va Qoraqumga[1] hamda Turon pasttekisligining sharqiy chegarasida, Qashqadaryoning quyi oqimida joylashgan. Fanda Qarshi cho'lining haqiqiy chegarasi to'g'risida turlicha fikrlar mavjud[2] bo'lib, soha mutaxassislari tomonidan adabiyotlar va manbalarda Qarshi cho'li hududini chegaralab ko'rsatishga urinishgan.

Qarshi cho'li hududi Qashqadaryo havzasining vohadan tashqari yerlarini tashkil qiladi va ularni hisoblash uchun qumliklar boshlanish chegarasigacha bo'lgan (jami

8705 km² (870500 gektar) yerlarni hisoblash ma'qul[3]. Shuningdek, Qarshi cho'li mutaxassislar geografik jihatdan Qashqadaryo viloyatining bir qismi sifatida tavsiflashadi. Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 28,6 ming km² bo'lib[4], uning qariyb yarmini egallagan tekislik qismi tabiiy-geografik jihatdan to'rtta hudud: 1) Qarshi cho'li; 2) Sandiqli qumlari; 3) Kitob-Shahrisabz hududi; 4) G'uzor – Qarshi vohasi[5]ga ajratib ko'rsatilgan.

Qarshi cho'li o'zlashtirish boshlanishi arafasidagi tadqiqot loyihalarida cho'l maydoni 13,0 ming km² (1305,5 ming gektar)dan ortiq[6] deb ko'rsatiladi, bundan 11,7 ming km² hududi (cho'lining 90 foiz hududi) mamlakatimiz hududida, qolgan (10 foiz) qismi qo'shni Turkmaniston Respublikasi hududida joylashgan [7].

Bu masalaga O'zbekiston Fanlar akademiyasining geografiya bo'limi ham aniqlik kiritgan. Jumladan, Qarshi cho'lining 11,7 ming km² qismi O'zbekistonda, qolgan qismi Turkmaniston Respublikasi tarkibida ekanligi qayd etib, O'zbekiston hududidagi Qarshi cho'li sug'orish mumkin bo'lgan yerlari tarkibiga Qashqadaryoning g'arbiy qismi, Buxoro viloyatining janubi-sharqiy qismi va Samarqand viloyatlarining janubi-g'arbiy qismidagi sug'oriladigan, lalmi va yaylov yerlarni kiritgan. Qarshi cho'lining O'zbekiston hududidagi sug'orish mumkin bo'lgan yerlarining 17,0 foiz qismi, ya'ni 200,6 ming gektari Buxoro va Samarqand viloyatlari hududida, 83,0 foiz qismi, ya'ni 975,4 ming gektar qismi Qashqadaryo viloyati hududiga to'g'ri kelgan[8]. Dastlab, sovet hukumati tomonidan Qarshi cho'lida 901 ming gektar (unda 565 ming gektar yuqori va o'rta unumdorlik bo'lgan) yer sug'orilishi rejalashtirilgan [6].

Qarshi cho'lining umumiy maydonini Bagama orollari (13,8 ming km²) maydoniga[9], cho'lining O'zbekiston hududidagi maydonini esa Gambiya (11,3 ming km²) va Qatar (11,5 ming km²)[10] kabi Amerika, Afrika va Osiyo davlatlarining maydoniga qiyoslab ko'rsatish mumkin. Qarshi cho'li Turkmanistondagi Nebitdog', Ozarbayjondagi Lenkoran pasttekisligi[11] bilan, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlarining yirik qishloq xo'jaligi markazlaridan biri hisoblangan Jorjiya shtati[12] bilan bir xil geografik kenglikda joylashgan.

Qarshi cho'lining Turkmanistondagi Samsonov platosi 108,0 ming gektar[6, B.19] bo'lib, uning hududi bugungi Lebap viloyati hududiga to'g'ri keladi. Mutaxassislar bu yerlarni sug'orish Qarshi cho'lini o'zlashtirish loyihasi bilan bog'liq emas, balki mustaqil yirik obyekt sifatida qarashgan [13].

Qarshi cho'lining relyefi, asosan, to'liqinsimon tekislikdan iborat bo'lib, cho'lining o'rta qismida Qo'ng'irtog' va Kosontog'lar, shimoli-g'arbida Dultalisho'r va Sho'rsoy soylıkları mavjud[14]. Cho'ning eng yuqori nuqtasi Kosontog' (452 metr)[8, B.7], cho'l hududining 500 ming gektardan ortiq maydoni Amudaryo sathidan 70 - 80 metr balandlikda joylashgan[15].

Qarshi cho'li haqida mufassal tabiiy-geografik tadqiqotlarni sovet olimlari Qarshi cho'lini o'zlashtirish ishlari boshlanishi arafasida va o'zlashtirish jarayonlari davomida o'rganib chiqqanligini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, Qarshi cho'li kontinental iqlim xususiyatlari bilan ajralib turadi: issiq, uzoq yoz va qisqa qish. Yillik harorat yig'indisi 5010 °C[16] dan oshishi, sovuqsiz davrning davomiyligi 210-220 kunning tashkil etishi[6, B.15] ta'kidlanadi. Hamda Qarshi cho'lida eng nam hamda beqaror fasl – bahor, kuz fasli esa – qisqa nam va issiq[8] deb tavsiflanadi. Qarshi cho'lida eng issiq oy (iyul)ning o'rtacha harorati 28,8 – 29,7 °C dan kam emas[16, B.7] deb qayd etiladi. Yog'ingarchilik miqdori cho'l bo'ylab notekis tushadi: Qarshi cho'lining sharqiy qismida ko'proq, g'arbiy qismida esa kamroq bo'lib, cho'lining ma'muriy markazi Qarshi shahrida o'rtacha yillik yog'in miqdori 227 millimetr, g'arbda esa 152 millimetr[6, B.16], cho'lida umumiy yog'ingarchilik miqdori 125-187 millimetr[13] ni tashkil etgan.

1974-1978-yillarda Qarshi cho'li hududida radiatsiya, issiqlik balansi va iqlim parametrlarini o'zgarishi bo'yicha mutaxassislar tomonidan tajriba o'tkazilgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra Qarshi cho'lida iqlim omillarining barcha asosiy o'zgarishlari cho'lida sug'orish ishlari boshlangandan keyingi 3-4 yil ichida sodir bo'lganligini qayd etgan[17]. Demak, Qarshi cho'lga Amudaryo suvining oqizilishi, yerlarning o'zlashtirilishi boshlanishi Qarshi cho'li hududida iqlimiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlagan.

Qarshi cho'lining to'rtlamachi davr qatlami haqida dastlabki ilmiy ma'lumotni Rossiya imperiyasi davrida I. V. Mushketov (1886 y.) bergan[11] va O'rta Osiyo cho'llarini birinchi marta to'rt turga (qumli, gilli, tuzli (sho'r) va toshloq) bo'lib, tasniflagan olim L. S. Berg (1911 y.)[1] hisoblanadi.

Qarshi cho'lini o'zlashtirishning asosiy bosqichi boshlanmasdan avval mutaxassislar Qarshi cho'li tuproqlarini 5 ta meliorativ toifaga bo'lish mumkinligini ta'kidlab, ulardan ikkitasi umumiy maydonning 10% ini egallagan (120 ming gektari sug'orilishi ko'zda tutilmagan). Ularning 89,1 ming gektari O'zbekiston hududida va 30,9 ming gektari Turkmaniston hududida joylashgan[18].

Birinchi toifaga (200 ming gektar cho'lining yalpi maydonining 15%) melioratsiyasiz sug'orish uchun yaroqli yerlar kiradi. Bular tipik bo'z - qo'riq va sug'orma tuproqlar. Ikkinchi toifaga (685 ming gektar yalpi maydonning 51%) - melioratsiya, ya'ni kollektor va zovurlar orqali yuvish o'tkazilsa, sug'orish uchun yaroqli yerlar kuradi. Bular, asosan, biroz sho'rlangan bo'z tuproqlar va allyuviydagi bo'z-

qo'ng'ir tuproqlardir. Uchinchi toifaga (330 ming gektar - yalpi maydonning 24%) yer yuzasidan 3-10 metr chuqurlikdagi yerosti suvlari bo'lgan nishablari zaif tekisliklardagi yoki yassi suvayirg'ichlardagi bo'z tuproqlar, taqir va o'tloqli sho'r tuproqlar kiradi. Ushbu yerlarning aksariyati yerosti suvlarining qiyin chiqishi bilan ajralib turadi va zich drenaj tarmog'i orqali muntazam ravishda yuvilishini talab qiladi [16]. Qarshi cho'lida och tusli bo'z tuproq, sur qo'ng'ir cho'l tuprog'i, taqir tuproq hamda cho'lining g'arbiy qismida qum, qumloq, qumoq, taqir, sho'rxoklar va bo'z-qo'ng'ir tuproqlar mavjud[19]. Ko'rinib turibdiki, Qarshi cho'li deb atalgan hududning tuproqlarini bir qancha turlarga ajratish mumkin.

Qashqadaryo viloyatida bir gidrologik yilda sarf bo'ladigan umumiy suv resurslarining atigi 5 foizi Zarafshon daryosidan kanal orqali olinadi[20]. Shu sababli, Qarshi cho'lini (Qashqadaryo viloyatini emas) suv bilan ta'minlovchi irrigatsiya tizimlarini nazariy jihatdan ikkita yirik tizimga bo'lib o'rganish mumkin.

Qarshi cho'lini tabiiy suv manbalariga boy deb bo'lmaydi[2]. Qashqadaryo havzasining geologiyasi va gidrogeologiyasini sovet hokimiyati davrida Reyzer (1941 y.), Y. A. Svorsov, G. F. Teyxuxin (1941-1949 y.y.), B. I. Sigalov (1946-1947 y.y.) M.F. Boykova (1952-1956 yy.) Qashqadaryo havzasining yer va suv resurslaridan qishloq xo'jaligida samarali foydalanishni asoslash, suv omborlari qurish maqsadida gidrogeologik va muhandislik tadqiqotlar o'tkazgan[11].

Qarshi cho'lining bir qismi qadimdan Qashqadaryo daryosi suvlari bilan sug'orilgan [21]. Amudaryo suvi bilan Qarshi cho'lini sug'orish boshlanmasdan avval, butun Qarshi cho'lining taxminan 6-7 foiz qismini Qashqadaryo suvi bilan sug'orilgan[11]. Bunga Qashqadaryoning o'zani hisoblangan G'uzordaryo-ning ham hissasi bo'lgan. Qarshi cho'lga tog'lardan oqib tushadigan Qashqadaryo va G'uzardaryoning suvlari yetib kelgan [6].

Qashqadaryo hududidagi yer osti suvlari rejimi to'g'risidagi dastlabki ilmiy ma'lumotlarni M. A. Shmid (1937 y.), A. I. Shevchenko, V. D. Dmitriyev (1934 y.) bergan bo'lsa, 1959-1960-yillarda hududning yer osti suvlari rejimini M. S. Grinberg va U. I. Ishboboyevlar o'rganishgan[11]. Qarshi cho'li hududi Buxoro-Qarshi artizan gidrogeologik havzasi tarkibiga kiradi[2, B.346]. 1961-1963-yillarda esa yer osti suvlari rejimini kuzatish, o'rganish Surxondaryo gidrogeologiya stansiyasi (L. D. Velichko, A. D. Burenkov va boshqalar) tomonidan o'rganilgan.

Qarshi cho'lida yangi sug'oriladigan yerlarning gidrogeologik va muhandislik holatini, shuningdek, imkoniyatlarini "Uzbekgidrogeologiya" trestini bilan bir qatorda "Sredazgiprovodxlopok" (I. Aleksandrovskiy va boshqalar), "Uzgiprovodxoz" institutlari, hamda, "Gidroproyekt" institutining Kuybishev filiali, o'n yil ichida (1961-1970 y.y.) Qashqadaryo havzasining tekislik qismida muhandis-geologik va gidrogeologik sharoitlarini o'rganish [22]. 1967-1972-yillarda Qarshi cho'lining Beshkent tajriba-hududida yer osti suvlarini o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan (K.M. Aripov, N.A. Mishchenko, Ch. Diyarov)[11].

Shunday bo'lsada, 1966-yili Qarshi cho'lini sug'orish va o'zlashtirish loyihasi ekspert komissiyasining raisi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori P. Letunov boshchiligidagi olimlar jamoasining xulosasida "Kelgusida Amudaryo va Sirdaryo daryolari oqimini rejalashtirilgan tarzda tartibga solish va ulardan sug'orish ehtiyojlari uchun foydalanish natijasida daryolar suvining Orol dengiziga quyilishi tabiiy sharoitga nisbatan 5-6 barobar kamayadi va dengiz qurishining real tahdidi mavjud[6, B.29]" deb ta'kidlagan. Mintaqada ekologik halokat yuzaga kelishi uchun uzoq vaqt talab etilmadi.

Xulosalar. Qarshi cho'li yerlarini sug'orish uchun Amudaryo suvidan foydalanishning aniq hisob-kitoblari va ekspert komissiyasining Amudaryodan suv olish imkoniyati bo'yicha ijobiy fikri mavjud bo'lmasada hukumat mazkur

mintaqada paxta yetishtirishni asosiy maqsad deb bilgan. Bu yo'lda ular uchun mintaqa ekologiyasi va cho'l aholisining xo'jalik an'analari va kelajagi keyingi darajadagi masalalar bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Бабаев А.Г., Дроздов Н.Н., Зонн И.С. Пустыни. – Москва. Мысль, 1986. – С. 24. (318).
2. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyai. –Toshkent. O'qituvchi, 2002. –B. 344-345.
3. Виноградов Г.Н. Ирригация в долине Кашка-дарьи. – Ташкент. САНИИРИ, 1935. – С. 5.
4. Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Toshkent. Universitet. 2014. – B. 299. (404).
5. Фафуров З.А. Динамика эвапотранспирации сельхозкультур орошаемых земель в Каршинской степи в условиях современной тенденции глобального и регионального изменения климата. 11.00.04 – Метерология. Климатология. Агротрология. Диссертация на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по географическим наукам. Ташкент, 2019. – С. 23-24.
6. O'zMA, 2743-jamg'arma, 1-ro'uxat, 493-yig'ma jild, 16-varaq
7. G'oirova T. "Qarshi cho'lida mehnat resurslaridan samarali foydalanish". –Toshkent. O'zbekiston, 1984. –B. 4.
8. Академия наук Узбекской ССР отдел географии. Каршинская степь и географические проблемы ее хозяйственного освоения. – Ташкент. Фан, 1973. – С. 43-44.
9. Страны мира современный справочник. – Москва. Дом Славянской книги, 2015. -С. 481. (659)
10. Атлас мира. – Москва. Картография, 2010. -С. 16-17. (256)
11. Ходжибаев Н. Н., Арипов К. М., Магдиев В. У. Гидрогеолого-мелиоративные условия Каршинской степи. – Ташкент. Фан, 1975. – С. 9. (184)
12. Физическая карта мира. –Москва: Издательство Астрель, 2012.
13. O'zMA, 2743-jamg'arma, 1-ro'uxat, 581-yig'ma jild, 2-varaq.
14. Dolimov N., Mo'minov O., Qoriyev M. O'zbekiston SSR tabiiy geografiyasi. – Toshkent. O'qituvchi, 1976. –B.103.
15. Непорожний П. С. Энергетика страны глазами министра. Дневники 1935-1985 гг. / П. С. Непорожний. – Москва. Энергоатомиздат, 2000. -с. 111. (- 782)
16. O'zMA, 2743-jamg'arma, 1-ro'uxat, 136-yig'ma jild, 7-varaq.
17. Духовный В. А. Ирригационные комплексы на новых землях Средней Азии. – Ташкент. Узбекистан, 1983. – С. 45-49.
18. O'ljaboyev Q. "Qarshi cho'lining istiqboli" // "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi. 21 mart, 1965.
19. Choriyev A., Ochilov M. Qashqadaryo oblasti. – Toshkent. O'zbekiston, 1974. – B. 19; Qoriyev M. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. – Toshkent. O'qituvchi, 1968. – B. 267.
20. <https://water.gov.uz/>
21. Большая Советская Энциклопедия. Том 11. Москва. Издательство «Советская энциклопедия». 1973. – С. 491.
22. Ирригация Узбекистана. Том I. – Ташкент. Фан, 1975. – С. 45.



UDK: 94:502.34(575.1)

Shaxnoza SAIDOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: izigieva@yandex.com

Toshkent KIME xalkaro universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD) U.Xalmuminov taqrizi asosida

ISSUES OF THE ECOLOGICAL HISTORY OF UZBEKISTAN: TENDENCIES IN 2021-2023 AND THE ECOPOLITICAL AGENDA OF INTERNATIONAL COOPERATION

Annotation

This article shows the sequence of events in the modern modern history of Uzbekistan in the field of environmental policy, gives a comparative descriptive format of the dynamics of ecopolitical events in the Republic of Uzbekistan over the past three years. Environmental policy is an urgent direction for the development of states in the 21st century, thus, each state has its own path of formation, development and adaptation with international eco-political processes. This article examines the results of the study of modern trends, provides a comparative analysis and results of the above-mentioned trends, their impact and role on the eco-policy of Uzbekistan.

Key words: ecopolitics, environmental protection, the modern history of Uzbekistan, modern environmental trends, international relations, UN, SDGs, UNEP, Zamin Foundation, ecology, Central Asia.

ВОПРОСЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА: ТЕНДЕНЦИИ 2021-2023 ГОДОВ И ЭКОПОЛИТИЧЕСКИЕ ПОВЕСТКИ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Аннотация

В данной статье отображена последовательность событий в современной новейшей истории Узбекистана в области экологической политики, дается сравнительно-описательный формат динамики экполитических событий в Республике Узбекистан за последние три года. Экологическая политика – актуальное направление развития государств в XXI веке, таким образом, у каждого государства свой путь формирования, развития и адаптации с международными экполитическими процессами. В данной статье рассмотрены результаты изучения современных тенденций, приведены сравнительный анализ и итоги вышеупомянутых тенденций, их влияние и роль на экполитику Узбекистана.

Ключевые слова: экполитика, охрана окружающей среды, новейшая история Узбекистана, современные экологические тенденции, международные отношения, ООН, ЦУР, ЮНЕП, Zamin Foundation, экология, Центральная Азия.

O‘ZBEKISTON YEKOLOGIK TARIXI MASALALARI: 2021-2023 YILLARDAGI TENDENSIYALAR VA XALQARO HAMKORLIKNING YEKOPOLITIK MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonning zamonaviy zamonaviy tarixidagi yekologik siyosat sohasidagi voqealar ketma-ketligi ko‘rsatilgan, so‘nggi uch yil ichida O‘zbekiston Respublikasida yekopolitik hodisalar dinamikasining qiyosiy tavsif formati berilgan. Yekologik siyosat XXI-asrda davlatlar rivojlanishining dolzarb yo‘nalishi hisoblanadi, shuning uchun har bir davlatning o‘ziga xos shakllanish, rivojlanish va xalqaro yekologik-siyosiy jarayonlarga moslashish yo‘li mavjud. Ushbu maqolada zamonaviy tendensiyalarni o‘rganish natijalari ko‘rib chiqiladi, yuqorida qayd yetilgan tendensiyalarning qiyosiy tahlili va natijalari, ularning O‘zbekiston yekologik siyosatiga ta‘siri va roli keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yekopolitika, atrof-muhitni muhofaza qilish, O‘zbekistonning zamonaviy tarixi, zamonaviy yekologik tendensiyalar, xalqaro munosabatlar, BMT, SDG, YUNEP, Zomin jamg‘armasi, yekologiya, Markaziy Osiyo.

Введение. Экологическая история – изучает взаимодействие человека и остальной природы в исторической динамике [1], в которой особенно точно можно проследить стабильную актуальность вопросов экологических проблем за весь период существования человечества. Таким образом, каждый исторический период обусловлен своими экологическими аспектами, которые в исторической ретроспективе неразрывно были связаны с событиями каждого периода, и более важно, с антропогенным влиянием на экосистему земного шара в той или иной эпохе. К примеру, взаимосвязанная историческая цепь – первобытные люди, которых было свойственно подстраиваться по естественный ландшафт и природно-климатические условия своего периода, эволюционным путем стали подстраивать данные же природные условия в целях обеспечения нового уровня жизнедеятельности, что послужило основой антропогенного воздействия, которое в последующем изменило

естественный природный ландшафт и адаптировало его [2]. В результате, продолжая данную историческую цепь, можно сделать вывод, что актуальность экологических вопросов будет равна времени существования человечества и ее истории. Следственно, каждый исторический период характерно влияет на экологическую историю своего периода. Так, общая историческая тенденция XX-XXI вв – демократизации и гражданского общества, поддержания мира во всем мире и развитых дипломатических отношений – привели к появлению новой политической отрасли - экологической политики [3].

Современное мироустройство строится на основе сотрудничества множества различных стран по принципу взаимовыгодного сотрудничества и в подобном контексте последних веков, когда все государства активно ведут дипломатические отношения и ведут переговоры и договоренности, особенно актуальным стало развитие экологической политики как внешней, так и внутренней

отдельно каждой страны, а также международного эколопического сотрудничества в целях совместного решения вопросов данного характера. Исходя из этого, у каждой страны создается и совершенствуется свой исторический путь развития экологической политики.

Анализ литературы по теме. Рассмотрение и изучение исторического аспекта данной тематики является возможным в трудах таких ученых и исследователей как Чуб В.Е., Антонов В.И., Духовный В.А., Соколов В.И., Давлетов С.Р., Кенжаев З.Т., Сафаров Д.И., Вебер А.Б., Деревянко А.П., Тишков В.А., Саблин И.В. Современные труды и исследовательские работы по указанной тематике косвенно находят свое отражение в работах Нарзуллаев О.Х., Холмунинова Ж.Т., Исламовой Д.Х., Хамдамовой А.Р., Айимбетовой Ш., Гайбуллаевой М.Ф., Тошбоева Р.С. и других.

Методология исследования. Методы анализа и синтеза, сравнительно-сопоставительный, индуктивный. Особую важность при исследовании данного вопроса занимает сравнительно-сопоставительный метод в виду наличия статистических данных, а также динамики в течение нескольких лет.

Анализ и результаты. За последние годы, в Республике Узбекистан были проведены ряд мероприятий в вышеуказанных целях, в том числе развития и повышения статуса страны на международной эколопической арене как путем международных договоренностей, так и с помощью систематизации управления и содействия внутренней экологической политике страны. К примеру, инновационным подходом в данном вопросе стало принятие «Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в 2017 – 2021 годах» [4], в котором наблюдается новый подход к системе управления и координации экологических и эколопических процессов в стране. В результате данной Стратегии, запущен процесс сокращения энергоемкости и ресурсоемкости экономики, внедрение в производство энергосберегающих технологий, использования возобновляемых источников энергии, проведены строительные улучшения условий жизни населения.

Данные мероприятия послужили формирующими действиями и подготовили внутрислопическую основу для дальнейшего реформирования экологической политики в стране [5].

В рамках «Стратегии действия в 2017-2021 годах» Республика Узбекистан развивала и укрепляла внешнеполитические связи во всех сферах деятельности. Следственным итогом, стали различные научные, экономические, политические и социально-культурные мероприятия экологического направления международного статуса. В том числе, в октябре 2021 года в Ташкенте была организована Азиатская международная выставка по охране окружающей среды «Green Ecology Technologies Central Asia (GETCA) 2021», которая объединила самых известных производителей и разработчиков оборудования, технологий для сбора, сортировки, переработки и утилизации отходов производства и потребления, а также компании, предоставляющие полный комплекс услуг по экологическому мониторингу и технологий по ресурсосбережению воды, воздуха, почв, источников альтернативной энергии, систем аналитического контроля для следующих целей: налаживание связей между производителями очистного и перерабатывающего оборудования, трейдерами, поставщиками товаров и экологических услуг и непосредственно потребителями – частными хозяйствами, жилищно-коммунальными службами, добывающими и перерабатывающими предприятиями нефтегазовой, горной, металлургической, химической, а также пищевой, строительной,

транспортной, энергетической и других отраслей; способствование внедрению экологически чистых технологий в производство; поддержка программ по сокращению потребления энергоресурсов, совершенствованию технологических процессов при переходе на альтернативные источники энергии [6].

Результаты вышеприведенной «Стратегии действий...» продемонстрировали результативность поэтапных мер, после чего в продолжение были приняты следующие планомерные мероприятия по развитию страны в отдельных актуальных отраслях на ближайшие 2022-2026 годы – «Стратегия развития Нового Узбекистана» [7].

В ней были выдвинуты семь приоритетных направления развития страны, которые также охватывали развитие «зеленой экономики» и переход к альтернативным источникам энергии в государстве, экономическое стимулирование организаций разных ступеней посредством льготных кредитов на приобретение необходимого оборудования и оснащений. Помимо данного фактора внутренней эколопистики, в «Стратегии развития Нового Узбекистана» одним из приоритетных направлений является – подход к глобальным проблемам исходя из национальных интересов, которой посвящены 79-88 целей в Приложении к Указу Президента. Среди приведенных целей, стоит особо отметить 79 цель, в которой отмечено: выдвижение инициатив в области окружающей среды на международ-ной арене, включая разработку Всемирной экологической хартии; внедрение системы взятия в автоматическом режиме образцов с загрязняющих источников объектов с высоким уровнем опасности воздействия на окружающую среду (I категория) [8].

Результатами вышеупомянутых целей можно отметить консолидацию сил с международной инициативой и присоединение Узбекистана к глобальной повестке Организации Объединенных Наций (ООН) «Целям устойчивого развития (ЦУР) до 2030 года», а также принятие в 2018 году 16 Национальных ЦУР [9]. Таким образом, особое усиление внимания к эколопическим процессам в стране было обеспечено путем выделения приоритетных национальных целей устойчивого развития, каждая из которых включает в себя вопросы и проблематики экологического характера и предлагает пути их координации как государственными уполномоченными органами, так и посредством народа и его экологического просвещения и поддержания инициатив, выдвигаемые из общественно-активных организаций и от отдельных лиц. Примечательным является активное инициаторское проявление Узбекистана в рамках приверженности к ЦУР и предложенная Президентом Республики Узбекистана Резолюции «Об усилении роли парламентов в ускорении достижении ЦУР» на Генеральной Ассамблее ООН в декабре 2022 года [10]. Принятие данной Резолюции демонстрирует активную внешнюю эколопистику государства на международной арене и ее плодотворность, тем самым повышает и усиливает ее статус и готовность кооперировать и реагировать на современные вызовы природы сплоченно с государствами всего мира [11].

Еще одним важным событием, непосредственно связанное с вышеупомянутыми действиями Узбекистана во внешней эколопистике, является утверждение как инструмента реализации внутренней эколопистики в государстве «Концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года» [12], которая в значительной степени обращает внимание на антропогенное воздействие на экосистему Узбекистана и

пути минимизации негативных его последствий. В рамках данной концепции была поставлена цель – автоматизации мониторинга загрязнения окружающей среды в Узбекистане, которую при поддержке Программы ООН по окружающей среде (ЮНЕП) и фонда Zamin [13] приступил к исполнению Центр гидрометеорологической службы по проекту автоматизации процессов мониторинга. За данное время, статистические данные ведутся по трем направлениям – загрязненность воздуха, поверхности вод, почвы. В аналитических сводках, подробно разобраны факторы, влияющие на загрязненность, дается статистика по городам Республики Каракалпакстан, областей и городу Ташкенту. В настоящее время, статистика показывает в открытом доступе показатели 2019-2023 годов [14].

Особенное место во внешней экополитической деятельности Узбекистана занимает поддержание соседских отношений со странами Центральной Азии (ЦА), которое прямым образом влияет на всю политику и историю страны в целом. Стоит отметить, что народы ЦА исторически имеют тесные корни с момента их формирования как общий народ с характерной культурой и обычаями. Таким образом, поддержание дружественных дипломатических отношений и сотрудничество во всех отраслях есть одна из важных приоритетов направления развития Узбекистана. Особое место при поддержании таких взаимоотношений между странами ЦА занимают вопросы экологического и экополитического направления в числе многих других. К примеру, одними из самых последних подобных событий стали Международный Форум «Опыт ЦА в достижении ЦУР» от 25 апреля 2023 года, а также выступления глав стран на климатическом

саммите ООН «COP28» [15] в декабре 2023 года. Регулярно между странами ведутся открытые диалоги по координированию совместной деятельности в области экологии и экополитики.

Заклучение и рекомендации. Результатом активной экологической политики Республики Узбекистан как внешней, так и внутренней, наблюдаются:

1.Повышение международного статуса Узбекистана в области экологической политики и в целом;

2.Усиление мер по предотвращению негативного антропогенного воздействия, вызванное предприятиями, а также имеющим естественно-природный характер;

3.Увеличение экологического образовательного фактора государственными органами и общественными организациями внутри государства среди граждан путем пропаганды и организации мероприятий, посвященных охране окружающей среды и роли человека в экосистеме;

4.Открытый доступ к статистическим данным мониторингов различных экологических сфер деятельности;

5.Усиление инициативности и в последующем роли Узбекистана в области экополитики на международной арене

Таким образом, за 2021-2023 годы, складываются исторически значимые события в экологической политике Республики Узбекистан, которые позволяют проследить ход исторического развития данного сектора в динамике. Подобные события стимулируют рост научно-исследовательского интереса к данному вопросу и повышает потенциал в области его изучения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бао Маохонг. Экологическая история и мировая история // Журнал региональной истории. Т.2. №1. – 2018. – С. 6-18.
2. Адаптация народов и культур к изменениям природной среды, социальным и техногенным трансформациям / отв. ред. А. П. Деревянко, А. Б. Куделин, В. А. Тишков ; Отд-ние ист.-филол. наук РАН. — Москва: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2010. — С. 18-83, 129-138.
3. Каранда А.В. Экологическая политика: понятие, виды, принципы // Молодой ученый. Т.1. №3. – 2020. – С. 352-354.
4. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 07.02.2017. № УП-4947 [Электронный ресурс] URL: <https://lex.uz/docs/3107042> (Дата обращения 04.01.2024).
5. Стратегия действий: стремительные реформы за пять лет [Электронный ресурс] URL: <https://strategy.uz/index.php?news=1382&lang=ru> (Дата обращения 04.01.2024).
6. Green Ecology Technologies Central Asia 2021 [Электронный ресурс] URL: <https://www.waste.ru/modules/extcal/event.php?event=576> (Дата обращения 05.01.2024).
7. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28.01.2022. № УП – 60. [Электронный ресурс] URL: <https://lex.uz/docs/5841077> (Дата обращения 05.01.2024).
8. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28.01.2022. № УП – 60. Приложение 1. [Электронный ресурс] URL: <https://lex.uz/docs/5841077> (Дата обращения 05.01.2024).
9. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по реализации Национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года» от 20.10.2018. № 841. [Электронный ресурс] URL: <https://lex.uz/docs/4013358> (Дата обращения 05.01.2024).
10. Генеральная ассамблея ООН поддержала инициативу президента Узбекистана [Электронный ресурс] URL: <https://kun.uz/ru/news/2022/12/16/generalnaya-assambleya-oon-podderjala-initsiativu-prezidenta-uzbekistana> (Дата обращения 05.01.2024).
11. Добровольный Национальный Обзор о реализации национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана до 2030 года – Ташкент, 2023. – С. 7-85. [Электронный ресурс] URL: https://api.mf.uz/media/document_files/02_05_2023ru.pdf (Дата обращения 05.01.2024).
12. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года» от 30.10.2019. № УП – 5863. [Электронный ресурс] URL: <https://lex.uz/docs/4574010> (Дата обращения 05.01.2024).
13. Запущен проект по мониторингу качества воздуха . [Электронный ресурс] URL: <https://uz24.uz/ru/articles/monitoring-vozduha> (Дата обращения 05.01.2024).
14. Открыты статистические данные мониторинга загрязнения окружающей природной среды Республики Узбекистан [Электронный ресурс] URL: <https://monitoring.meteo.uz/ru/> (Дата обращения 06.01.2024).
15. Материалы «Конференции ООН по климатическим изменениям» от 01.12.2023. [Электронный ресурс] URL: <https://www.cop28.com/> (Дата обращения 06.01.2024).



UDK: 950(575)

Djamshed UMAROV,
TerDU Jahon tarixi kafedrasida erkin tadqiqotchisi
E-mail: Umarovjamshid510@gmail.com

TerDU professori, tarix fanlari doktori S. Tursunov taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING MA'ORIF SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA UNING NATIJASI (1945-1991-YILLAR MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada urushdan keyingi va tinch qurilish davridan mustaqillik davrigacha O'zbekiston maorifi, fan va madaniyati rus hamda Yevropa madaniyati ta'sirida rivojlanganligi, ammo bu - o'zbek xalqining milliyligidan, asrlardan beri meros bo'lib kelayotgan qadriyatlaridan muayyan darajada ajralgan holda rivojlangani va maorifdagi bazi kamchilaklarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich maktablar, pedagogik faoliyat, internat maktab, maktab ustaxonalari, texnikumlar.

REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION OF THE SOVIET AUTHORITY IN UZBEKISTAN AND ITS RESULTS (EXAMPLE OF 1945-1991)

Annotation

In this article, from the period of post-war and peaceful construction to the period of independence, the education, science and culture of Uzbekistan developed under the influence of Russian and European culture, but this is to a certain extent separated from the nationality of the Uzbek people and the values that have been inherited for centuries. development and some shortcomings in education have been touched upon.

Key words: Primary schools, pedagogical activity, boarding school, school workshops, technical schools.

РЕФОРМЫ В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ РЕЗУЛЬТАТЫ (НА ПРИМЕРЕ 1945-1991 ГГ.)

Аннотация

В данной статье с периода послевоенного и мирного строительства до периода независимости образование, наука и культура Узбекистана развивались под влиянием российской и европейской культуры, но это в определенной степени отделено от затронуты национальность узбекского народа и ценности, унаследованные веками, развитие и некоторые недостатки в образовании.

Ключевые слова: Начальная школа, педагогическая деятельность, школа-интернат, школьные мастерские, техникумы.

Kirish. Urushdan keyingi yillarda maktab qurilishi, bolalarni maktabga jalb qilish ishlari anchagina ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, 1943-yili ochila boshlangan ishchi va dehqon yoshlar maktablari (kechki va smenali) tarmog'i birmuncha kengaytirildi. Boshlang'ich maktablarda to'rt yillik boshlang'ich ta'limdan uch yillik boshlang'ich ta'limga o'tish amalga oshirildi. O'qituvchilarning bilimiga, ularning pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan talablar ortib borgan sari ularning moddiy ahvolini yaxshilashga ham katta e'tibor berila boshlandi. 1951-1955- yillarga mo'ljallangan beshinchi besh yillik rejada politexnika ta'limiga katta o'rin berildi. Shu munosabat bilan ittifoqdosh respublikalarning ta'lim vazirliklari o'quv rejalari va dasturlarini qayta tuzib, politexnika ta'limini oshirish to'g'risida maktablarga ko'rsatmalar berdilar.[1]

Asosiy qism. 1956-yil sentabridan boshlab maktabning yangi turi – internat maktab vujudga keltirildi. Chunki urush natijasida ota-onasini yo'qotgan bolalar, o'z bolalarini mustaqil tarbiyalashi qiyin bo'lgan beva ayollar ko'payib ketgan edi. Bunday maktablarga bolalar faqat ota-onalarning yoki ota-ona o'rni tarbiya qilayotgan kishilarning istagi bilangina qabul qilingan. Ota-onalari bo'lmagan bolalar, shuningdek, ayrim hollarda, mehnatkashlar deputatlari shahar va tuman Sho'rolari Ijroiya qo'mitalarining qarori bilan ko'p bolali, ta'minoti yaxshi bo'lmagan oilalarning bolalari internat-maktablarda to'liq ravishda davlat ta'minotiga o'tkazildi.[2]

1958-yil dekabrda «Xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida» qonun qabul qildi. Qonunda

o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borish, yoshlarni aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan yetuk qilib shakllantirish, ularga umumiy politexnik bilim berish vazifalari qo'yildi. 1959-yilda 10 yillik o'rta maktablar 11 yillik maktablarga aylantirildi. Maktablar uchun yangi o'quv rejalari, dasturlari va darsliklar yaratildi. Maktablarda ustaxonalar qurildi, maktab tajriba uchastkalari vujudga keldi.[3] Fizika va matematika fanlarini o'rganish uchun ajratilgan soatlar ko'paytirildi. O'quvchilarga mashinasozlik, sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tish yo'lga qo'yildi. 1962-yildayoq to'liqsiz umumiy majburiy sakkiz yillik ta'limga o'tish amalga oshdi. Barcha yetti yillik maktablar sakkiz yillik maktablarga aylantirildi. Sakkiz yillik maktabni tamomlagan o'quvchilar quyidagi o'quv yurtlarida o'qishlari mumkin edi: 1) to'liq umumiy ta'lim o'rta maktablarida (IX-X sinflarda); 2) o'qish muddati uch-to'rt yillik bo'lgan texnikumlarda; 3) hunar-texnika bilim yurtlari; 4) ishchi va qishloq yoshlari maktablarida.[4]

1959/1975-yillari respublikada internat-maktablar, maxsus maktablar va kuni uzaytirilgan guruhlar tarmog'i rivojlandi; jismonan nuqsonli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil qilindi; pedagog xodimlar tayyorlash va ular malakasini oshirish tarmog'i kengaytirildi.

Sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan yoshlarga ta'lim berish maqsadida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qish imkoniyatini beruvchi kechki va sirtqi maktablar tashkil etildi. 1958—1965-yillarda 1000 ga yaqin shunday maktablar ochildi, ularda o'qiyotgan yoshlar 1965-yilda 134,5 ming kishini tashkil etdi.[5]

O'zbekiston hukumatining «Respublika umumta'lim maktablari ishini yanada yaxshilash choralari to'g'risida» (1966) va «Respublika umumiy o'rta ta'limga o'tish munosabati bilan xalq maorifini yanada yaxshilash choralari to'g'risida» (1969) qarorlari qabul qilindi. Bu qarorlarga asosan respublikada yoshlar uchun umumiy o'rta ta'limga o'tish, yangi maktab binolari, o'quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar barpo etishga yo'naltirilgan kapital qurilish ishlari bajarildi. Maktab-internatlar, o'quvchi-larning badiiy iste'dodlarini rivojlantiruvchi maktablar ko'paydi. Jumladan, Glier nomidagi o'rta maktab- internat, milliy musiqa va milliy amaliy san'at maktab-internatlari, sport maktab- internati va boshqa o'nlab musiqa maktablari ochildi.

Tahlil va natijalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 1970-yilda ishlab chiqilgan nizomga muvofiq mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda alohida boshlang'ich (1-3-sinflar), 8 yillik (1-8-sinflar) va o'rta (1-10-sinflar) maktablarga aylantirildi. Ishlab chiqarish ta'limi berish maqsadida maktablararo o'quv ishlab chiqarish kombinatlari tuzildi. Shahar va tumanlarda kasb-hunar bilim yurtlari tashkil etildi. Ko'pchilik maktablarda yoshlarni o'quv mashg'ulotlaridan keyin maktabda olib qolish, ularga ta'lim-tarbiya berish ishlari yo'lga qo'yildi, ya'ni kuni uzaytirilgan maktablar tashkil topdi. Alohida fanlarni chuqur o'rgatuvchi maktablar, shuningdek, aqliy va jismoniy jihatdan zaif bolalar maktablari vujudga keldi.

70-yillarning o'rtalarida umumiy o'rta ta'limga o'tish yakunlandi. 1965- 1985-o'quv yillari orasida o'tgan 20 yil davomida barcha turdagi umumta'lim maktablari 8716 tadan 9188 taga ko'paydi, o'quvchilar soni esa 3055,8 ming boladan 6519,6 ming bolaga ko'paydi. 1965-1985-yillarda respublika maktablarida o'rta ma'lumot olganlar soni 5,7 million kishidan oshdi. O'rta maktabni tamomlaganlarning maxsus kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida texnikumlar soni ko'paytirildi, texnikumlar qoshida o'rta ma'lumotli kishilarni qabul qiladigan bo'limlar ochildi. Bu bo'limlarda o'qish muddati 2-3 yil qilib belgilandi.[6]

Urushdan keyingi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim ancha o'sdi. 50- yillarda 3 ta oliy o'quv yurti — Andijon meditsina instituti, Toshkentda elektrotexnik aloqa, Fizkultura institutlari, 60-yillarda yana 8 ta yangi oliy o'quv yurti — Andijon paxtachilik instituti, Farg'ona politexnika instituti, Samarqand arxitektura-qurilish instituti, Termiz, Sirdaryo, Toshkent viloyat pedagogika institutlari, Andijon tillar pedagogika instituti, Toshkent rus tili va adabiyoti pedagogika instituti tashkil etildi. 70-yillarda yana 5 ta oliy o'quv yurti — Nukus davlat universiteti, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Pediatriya instituti ochildi. Shuningdek, yangi fakultetlar, viloyatlarda yirik oliy o'quv yurtlarining filiallari ochildi. Yangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.[7]

1960-yilda 30 ta oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlangan bo'lsa, 1985-yilda ularning soni 42 tani tashkil

etdi. 1961-1985-yillardan respublika oliy o'quv yurtlari 828 mingga yaqin muhandislar, iqtisodchilar, agronomlar, huquqshunoslar, o'qituvchilar, madaniyat va san'at xodimlari yetishtirib berdi. Shuningdek, o'rta maxsus o'quv yurtlari tarmog'i ham kengaydi. 1960-yilda 75 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1965-yilda ularning soni 249 taga yetdi. 1961-1985-yillarda 1 mln. 135 mingga yaqin o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlandi. Mutaxassis kadrlarni tayyorlashda jiddiy kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi.

Xulosa va takliflar. Mutaxassislar tayyorlash sifatini ko'tarish sohasidagi sa'y-harakatlar kutilgan natijani bermadi. Buning sabablari esa quyidagicha edi:

➤ o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi talabalarning o'sish darajasidan ancha past darajada bo'ldi, zamonaviy texnika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmadi;

➤ Respublika partiya va sho'ro organlari tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun har bir viloyatdan talabalar qabul qilish rejasi belgilangan bo'lib, bu rejani qanday qilib bo'lsa ham bajarish majburiy edi. Bu o'z navbatida bilim saviyasi nihoyatda past bo'lgan yoshlarning ham oliy o'quv yurtlaridan o'rin olishiga olib keldi;

➤ oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida o'quv rejalar va dasturlari 60-70-yillarda uch marta o'zgardi, har safar o'qitiladigan fanlar yangilari hisobiga ko'payib, o'quv materiallari hajmi oshib bordi, talabalarning mustaqil o'qib o'rganishlari uchun vaqt tobora kamayib bordi;

➤ xalq xo'jaligining mutaxassislarga bo'lgan talabi yaxshi o'rganilmadi, natijada kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi, ba'zi sohalarida keragidan ortiqcha mutaxassislar tayyorlandi, boshqa sohalarida, ayniqsa, texnika taraqqiyotining hal qiluvchi tarmoqlarida kadrlar yetishmovchiligiga yo'l qo'yildi;

➤ o'quv yurtlari faoliyatida tanish-bilishlik, oshnagog'aynigarchilik kabi salbiy holatlarning tarqalishi ham kadrlar tayyorlash sifatini pasaytirdi, son ketidan quvish ustunlik qildi. Bunday vaziyatda yosh mutaxassislarning ma'lum qismi olgan bilimlarini turmush bilan bog'lay olmadilar, g'oyaviy-professional va axloqiy jihatdan yetuklik va qat'iylik ko'rsata olmay, ko'zbo'yamachilik, qo'shib yozish yo'lga kirib qoldilar. Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida keng tarqalgan salbiy holatlarning ildizi mutaxassislar tayyorlashdagi nuqsonlarga borib taqaladi.

Umuman, urushdan keyingi va tinch qurilish davridan mustaqillik davrigacha O'zbekiston maorifi, fan va madaniyati rus hamda Yevropa madaniyati ta'sirida rivojlandi, ammo bu - o'zbek xalqining milliyligidan, asrlardan beri meros bo'lib kelayotgan qadriyatlaridan muayyan darajada ajralgan holda rivojlanish edi.

ADABIYOTLAR

1. Alimova D.A. Lessons from the witness of history: the exploration of national treasures of Uzbekistan during the period of tsarism and Soviet colonialism. – Tashkent: Sharq. – P. 29.
2. Hasanov M. Autonomy of Turkistan: truth and fiction // Science and life. – Tashkent, 1990, №11. – P. 6–8.
3. Great Turkistan. May 28, 1918.
4. Bendrikov K.E. Essays on the history of folk education in Turkistan. – Moscow: Izd. Acad. Ped. Nauki of the RSFSR, 1960. – P. 412.
5. Decrees of the Soviet government. V. 1. – Moscow: Gospolitizdat, 1959. – P. 271–274.
6. The Soviet victory in Central Asia and Kazakhstan. – Tashkent: Fan, 1967. – P. 561.
7. History of the Uzbekistan SSR. V. 3. – Tashkent: Fan, – P. 247.
8. Kadirova Yakitjan Buvabaevna, Kadirova Khalima Buvabaevna. Methodological Basis Of Development Of Legal Immunity Of Students On The Basis Of A Subject-Ethical Approach. Journal of Pharmaceutical Negative Results. 2022/12/23. Pp.6480-6487. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.771>

9. Y Kadirova, K Kadirova Social Activity Of Pedagogue In Socio-Political Life Of Society//Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B3. – Pp. 417-421
10. Kadirova Y. Loving the country is faithful //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 420-423.
11. Buvabaevna K. Y. Legal basis of formation of civic culture in students kadirova Yakitjan Buvabaevna: legal basis of formation of civic culture in students Kadirova Yakitjan Buvabaevna //Journal of Information Computational Science. – 2021. – №. 1. Pp.35-42
12. Buvabaevna K. Y. The importance of values in enhancing civil literacy in students //Archive of Conferences. – 2021. – T. 25. – №. 1. – C. 124-125.
13. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 5. – C. 469-473.
14. Buvabaevna K. Y. Issues of Civil Literacy Development in the Education System //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 5477-5489.
15. Kadyrova, H. (2017). Social and cultural identity of the Karakalpak people. In Role of nonmaterial factors in ensuring the social and psychological condition of a society (pp. 69-72).
16. Kadyrova, H. (2016). Traditions of moral education in modern families karakalpak. scope academic house b&m publishing, 40
17. Kadyrova, H. (2023). Value of developing media literacy, media education, information culture in Uzbekistan. Science and innovation, 2(B9), 23-27.